

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYATI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

R.T.ANKABAYEV

RANGTASVIR

fanidan 1–kurslar uchun o‘quv qo‘llanma

1–qism

“5110800–Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi”

TOSHKENT
«ISHONCHLI HAMKOR»
2021

UO‘K:
KBK:

Taqrizchilar:

X.E.Sultonov – Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
“Tasviriy san’at” kafedrası dotsenti

M.B.Axmedov – Nizomiy nomidagi TDPU “Masofaviy ta’lim”
kafedrası dotsenti

Mazkur o‘quv qo‘llanma “5110800 — Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” ta’lim yo‘nalishining 1–kurs talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda rangtasvir bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlar yoritilgan. O‘quv qo‘llanmada tasviriy san’at haqida dastlabki ma’umotlar, ranglar va ularning paydo bo‘lishi, rangtasvir va uning janrlari, rangtasvir haqida tushuncha, realistik rangtasvirning maqsad va vazifalari, xolis fonda 2–3 geometrik jismdan tuzilgan sodda natyurmort ishlash, grizayl texnikasi, gipsli geometrik jismlardan tuzilgan natyurmortning rangtasvirini cheklangan ranglarda bajarish, akvarel texnikasi, xolis fonda oddiy shakldagi uy–ro‘zg‘or buyumlaridan tashkil topgan natyurmortning rangtasvirini bajarish, qisqa muddatda uy–ro‘zg‘or buyumlardan tashkil topgan natyurmortning rangtasvirini bajarish, rangtasvirda ishlatiladigan xomashyolar va jihozlar kabi ko‘plab mavzular nazariy va amaliy jihatdan bayon qilingan.

O‘quv qo‘llanmadan “5110800 — Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” ta’lim yo‘nalishining 1–kurs talabalari qatorida, undan ilmiy izlanuvchilar, kasb–hunar kollejlari, litseylar, umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchilari, maktabdan tashqari muassasalarning to‘garak rahbarlari va havaskor rassomlar ham foydalanishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 31 maydagi 237-sonli buyrug‘iga asosan o‘quv qo‘llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-7476-4-7

Bolalar ota-onalariga berilgan bir omonatdir. Bolaning qalbi har qanday naqshu tasvirdan holi bir qimmatbaho gavhardir. U qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, qayoqqa bukilsa, egiladi. Agar yaxshilikka o'rgatilsa, shu bilan o'sadi va dunyoyu oxiratda saodatga erishadi. Uning savobiga ota-onasi ham, har bir muallimu ustozlari ham sherik bo'ladilar. Agar yomonlikka odatlantirilsa, hayvonlardek o'z holiga tashlab qo'yilsa, oxiroqibat halok bo'ladi. Gunohi esa uning tarbiyasi uchun javobgar bo'lganlarning gardaniga tushadi.

Imom G'azzoliy

I BOB. KIRISH

1 §. SO‘ZBOSHI O‘RNIDA

Bugungi kunda jahonning qaysi bir rivojlangan mamlakatlarini olmaylik, ta'lim sohasida, ayniqsa maktab yoshidan boshlab san'at, xususan, tasviriy san'at haqidagi bilimlarini rivojlantirishga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Mamlakatimizda yangi tashkil etilgan akademik litsey, ixtisoslashgan maxsus maktablar, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarning badiiy va estetik tarbiyasiga katta e'tibor berilmoqda.

“...farzandlarimiz uchun zarur sharoitlar yaratish, yangi–yangi ta'lim–tarbiya, madaniyat, san'at va sport maskanlarini barpo etish, yosh oilalar uchun uy–joylar qurish, yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularni tadbirkorlik sohasiga keng jalb etish bo'yicha boshlagan ishlarimizni yangi, yuksak bosqichga...”¹ ko'tarish zarurligini aytib o'tadilar O'zbekiston Respublikasining prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zlarining Konstitutsiyamizning 24 yilligiga bag'ishlangan ma'ruzalarida. Har qaysi xalq yoki millat o'z kelajagini o'ylar va jon kuydirar ekan birinchi galda ertangi kun

¹ O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” mavzusidagi mahruzasi. //Xalq so'zi, 2016 yil, 8 dekabr.

egalari bo'lgan yoshlar tarbiyasiga, ma'rifat va ma'naviyatiga alohida e'tibor va mas'uliyat bilan yondoshadi.

Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019–yilning 3–aprel kuni yoshlar ta'lim–tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, xotin–qizlar bandligini oshirishga qaratilgan kompleks chora–tadbirlarni o'z ichiga olgan 5 ta tashabbusni amaliyotga joriy etish bo'yicha dastur qabul qilar ekan, uning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratadi. 5 ta tashabbusning birinchisi bo'yicha yoshlarni madaniyat va san'at muassasalariga keng jalb etishga oid dastur loyihasi tayyorlanib, unga muvofiq, 2019–2020 yillarda 14 dan 30 yoshgacha bo'lgan 2 million nafar yoshlarni madaniyat va san'atga jalb etish bo'yicha hududiy “yo'l xarita”larini tasdiqlash ko'zda tutilgan. Shuningdek, bolalar musiqa va san'at maktablarida qo'shimcha sinflar, madaniyat markazlarida cholg'u, xonandalik, tasviriy san'at to'garaklari, havaskorlik teatr jamoalari va bolalar ansambllarini tashkil etish belgilangan. Yangidan quriladigan, rekonstruksiya va kapital ta'mirlanadigan hamda jihozlanadigan madaniyat markazlari shakllantirildi.

Darhaqiqat, inson ijodiy faolligi uning har tomonlama kamol topishida muhim omil bo'lib, uni estetik to'laqonliksiz tasavvur etib bo'lmaydi. Inson hayoti jism va buyumlar qurshovida kechadi. Rang–barang buyum va jismlar borliqqa go'zallik va nafosat baxsh etadi, insonga shu qonuniyatlar orqali qarashga undaydi.

O'sib kelayotgan yosh avlodni jahon andozalariga javob beradigan barkamol etib tarbiyalashda tasviriy san'at fani alohida ahamiyat kasb etadi. Yoshlarga badiiy ma'lumot berishda borliqni haqqoniy tasvirlash mashg'ulotlari benihoya katta bo'lib, bu ularning umumiy dunyoqarashlarini o'stirishda muhim ahamiyatga ega. Realistik rasm chizish san'ati tabiatdagi shakllarni haqqoniy obrazlarda tasvirlash mahoratini rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Tasviriy san'atni o'rganish yoshlarga atrofdagi jismlarning hajmini haqqoniy tasvirlash bilan birga, ranglar, buyumlarning nisbatlari, ularning konstruktiv tuzilishi, perspektiva (qisqarish) qonunlarini nazariy jihatdan o'rgatadi hamda ularning estetik didlarini o'stirishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, o'rta maxsus, kasb–hunar va oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan maxsus fanlarning chuqur va asosli bo'lishini taqazo etib, pedagoglar,

olimlar va rassomlar zimmasiga mashaqqatli, va ayni paytda sharaflı va yuksak mas’uliyat yuklaydi.

Yoshlarga yuqori darajada ta’lim–tarbiya berish — bo’lajak rassom–pedagogdan tasviriy san’at sohasida amaliy malakalarini yuqori darajada egallagan bo’lishdan tashqari, psixologiya sohasida ham yetarli ma’lumotga ega bo’lishni taqazo etadi. Hozirgi vaqtda ixtisoslashgısn maktablarda tasviriy san’at mashg’ulotlarini o’qıtishning nazariy va uslubiy asoslarini ishlab chiqish va ilmiy jihatdan asoslangan yangi yo’li, shakli, mazmuni hamda usullarini takomillashtirish eng dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Talabalarga — bo’lajak tasviriy san’at o’qıtuvchilariga mutaxassislik fanlarini keng ko’lamda o’qıtish, xususan, o’quv–amaliy va nazariy mashg’ulotlar orqali ularning ijodiy tasavvurlarini o’stirish va shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Bu esa, barcha mutaxassislik fanlaridan yaratilgan o’quv adabiyotlarning chuqur va mazmunli bo’lishini taqazo etadi.

Yuqorida bayon etilgan muammolarni ijobiy hal etish — bo’lajak o’qıtuvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Yoshlarning ijodiy tasavvurlarini o’stirish — dastlabki bosqıchlardan amalga oshirilishi lozim.

Uyg’onish davrining buyuk rassom va olimi Leonardo da Vinchi o’zining “Rangtasvir qonunlari” nomli asarida, jumladan, shunday degan edi: “Yoshlar, o’zlarini ilm–fan, tasviriy san’atda sinamoqchi bo’lsalar, avvalo rasm chizishni mukammal bilmoqlari lozim”¹.

“Sizdan bitta iltimos, rasm chizayotgan paytingizda yuzingizni ochib, qovoq uymasdan otiring. Siz ozingizda talant shakillantiryabsiz va oldingizga ilohiy ilhom kelgan, deb tasavvur qiling. Shuni esingizdan chiqazmang–ki, ilhom faqatgina sabrli va toqatli insonlarga kulib boqadi. Villiyam Cherchil siyosatdan ketganidan so’ng rassomchilik bilan shug’ullanishni boshlagan va u yaxshi chizar edi. U o’zi haqida “Mening oldimga ilhom keldi–yu, meni stress va hafagarchilikdan qutqardi...” degan edi”².

¹ Tomas P., Taylor A. Drawing. –London: 2011, 3–bet.

² Ростовцев Н.Н. Рисование головы человека. –М.: Изобразительное искусство, 1989, 103 с.

E'tibor bergan bo'lsangiz, rasm chizish insonga nafaqat ma'naviy zavq ulashadi, balki ruhan davolovch shifokor sifatida ham namoyon bo'ladi. Shuningdek, tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn sohasi ijodkorlarning, eng avvalo yosh iste'dodlarni xalqimizning boy ma'naviy dunyosini, shuningdek jahon tasviriy san'ati durdonalarini o'rganishda yaqin ko'makchi hamdir.

Rangtasvir o'quv fani ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashda o'zining keng imkoniyatlari bilan alohida ajralib turadi. Ushbu fan san'atkorning dunyosini, borliqni, uning go'zalligini tasvirlar va ranglar orqali ko'rish va tasavvur etish, haqiqiy san'at asarini qadrlashni o'rgatadi. Bu fanning bosh maqsadi – insonlarda badiiy madaniyat va badiiy fikrlash tafakkurini yuksaltirish hamda ijodiy faoliyatni tarbiyalashdan iboratdir. Rangtasvir fani o'z oldiga quyidagi maqsad va vazifalarni qo'yadi:

- narsani o'ziga qarab anglash, kuzatish, jismlarni o'zaro solishtirish;

- jismlarni shakl, rangi, materiallik xususiyati bo'yicha farqlay bihsh;

- rasm chizish mashg'ulotlarida e'tiborli bo'lish, fikrlab, jismlarning shaklini aniq tahlil qilishga o'rgatish;

- atrof muhitdagi ranglarni ko'ra olish va ularni idrok etishga o'rgatish;

- badiiy qobiliyat, did va fikrlash faoliyatini o'rgatish;

- tasviriy san'atning nazariy asoslari: nur-soya, rangshunoslik, perspektiva va fazoviy tasavvurni o'stirish;

- rangtasvir asarlarini o'qiy olish va rang ko'rish malakasi, ko'nikmalarini rivojlantirish;

- talabalarni turli kasb-hunarga yo'naltirish va vatanparvarlik, avvolambor milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini tarbiyalash.

Rangtasvir fanini o'rgatish barcha umumta'lim va boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi.

Muallif tomonidan o'quv qo'llanmaning mazmunini yanada boyitish borasidagi izlanishlari davom etishi tabiiy. Kitobni yanada takomillashtirish yuzasidan taklif va mulohazalaringiz bo'lsa, bizga yozib yuborsangiz Sizdan minnatdor bo'lar edik.

2 §. Ranglar va ularning paydo bo'lishi

O'rta Osiyoda ranglar haqidagi ta'limot qadimdan kitob miniatyurasi, naqqoshlik va devorlarga fresko pannolar ishlash bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan. Chunki musavvirlik hunari rang tanlash va ularni tayyorlay bilishni talab etgan. Shuning uchun har bir shogird, avvalo, rang tayyorlash sirlarini va shu ishga bog'liq kimyoviy jihatlarni o'rganganlar.

Ranglarning tabiatda qanday hosil bo'lishi va tarqalish hodisalari qadimdan olimlar va rassomlarning diqqatini tortgan. Uyg'onish davri buyuk rassomlari va nazariyachilari Leon Battista Alberti, Leonardo da Vinchi va boshqalar rangtasvir haqidagi asarlarida ranglarning xususiyatlari to'g'risida bayon qilganlar. Atoqli va mashhur olimlar Nyuton, Lomonosov, Gelmgolslar ranglarning mohiyatini ilmiy asosda tekshirganlar.

Rang muammosi haqida hozirgi vaqtda ham ko'pgina fan sohalarida ilmiy ishlar olib borilmoqda. Fizika fani rang tabiiy quvvati bilan qiziqsa, fiziologiya — odam ko'zi orqali yorug'ni sezib rangga aylantirishni, psixologiya — rangni idrok qilish muammosi va uning inson ruhiyatiga ta'sir qilib har xil his-tuyg'u hosil qilishi, biologiya — tirik jonivorlar hayotida rangning roli va ahamiyati bilan qiziqadi.

Ranglar bilan bog'liq muammolarni o'rganish doimo dunyo olimlarining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Bu muammoga yapon olimlari hamisha jiddiy qarashgan. Hozir ham dunyoda yagona bo'lgan Tokio Rang institutida inson qalbiga ta'sir etadigan tabiat hodisasi — rang atroflicha o'rganiladi.

“Rang va inson” muammosini turli mutaxassislikdagi olimlar o'rganishayapti. Ular orasida shfokorlar, fiziologlar, kimyogarlar, fiziklar, muhandislar bor.

Ranglar inson organizmiga, uning asab sistemasiga faol ta'sir ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish binolarini bo'yash bo'yicha taniqli mutaxassis, Fransiya'dagi texnika estetikasi institutining asoschisi Jak Veno bunday yozgan: “Rang har narsaga qodir: u nur, xotirjamlik va hayajonni keltirib chiqara oladi. U garmoniya vujudga keltirishi va larzaga solishi mumkin; undan mo'jizalar kutsa bo'ladi,



1–rasm. Kamalakdagi spektr. davolaydilar.

Rus ruhshunosi va asabshunosi B.M.Bexterez laboratoriyasida rangli yorug‘likning ruhiy jarayonlar o‘tish tezligiga ta’siri aniqlangan: uzun to‘lqinli yorug‘lik ruhiy jarayonni tezlatishi, o‘rtacha to‘lqinligi reaksiya tezligini pasaytirishi, qisqa to‘lqinli yorug‘lik kishini ezishi ma’lum bo‘lgan. Moviy rang kishi asabini xotirjam qiladi. Ruhan ezilgan kishilarga esa och qizil rang foydali ta’sir qilgan.

Olimlarning tajribalari anemiya — kam qonlik kasaliga uchragan bolalarni davolashda qizil rang foydali ekanligini ko‘rsatadi. Bunday bolalarda qizil rang ta’sirida qizil rang tanachalari ko‘paygan, kayfiyati yaxshilanib, semira boshlaganlar.

Ko‘k rang ko‘zning qon bosimini kamaytirib, qonning qon tomirlaridan normal yurishini ta’minlaydi. Buni professor S.B.Kravkov aniqladi, uning shogirdlari esa rang bilan davolash usulini ishlab chiqdilar.

ammo falokatga ham olib kelishi mumkin”¹.


Asrlar davomida to‘plangan tajriba ham bu fikrni tasdiqlaydi. Qizil rang hayajonga solishni, ko‘k rang xotirjam qilishni, qora rang qayg‘uli tuyg‘ular uyg‘otishini qadim zamonlardayoq bilganlar. Sariq rang esa kayfiyatni yaxshilaydi.

Ranglarni qadim zamonlardayoq iliq va sovuq ranglarga ajratganlar. O‘rta asr shfokorlari ba’zi ranglarning sehrli kuchiga ishonib, odamlarni rang bilan davolamoqchi bo‘lganlar. Davolashning bunday usullari hozir ham qisman saqlanib qolgan. Masalan, Fransiya ruhiy kasallarni devorlari maxsus rangga bo‘yalgan xonaga joylashtirib

¹ <http://kashfiyotlar.narod.ru>

Gloukoma kasaliga chalingan kishilar uchun hozir ko'k shishali ko'zoynaklar ishlab chiqiladi.

Bularning hammasi va boshqa faktlar turli rang kishi organizmiga, asab sistemasiga va avvalo ko'zga turlicha ta'sir qilishidan dalolat beradi.¹



2-rasm. Grafik yorug'lik spektri.

Ranglar garmoniyasi, kolorit, kontrastlar mavhumiy ranglarning go'zal birikmasi haqiqatan tabiatda mavjud va rassomlar idrok qiladi, umumlashtiradi, qayta-qayta yoki o'zgacha qabul qiladi. Shu ma'noda tabiat (yoki natura) rassomlar uchun asosiy rang his qilish manbai hisoblaiadi.

Rassom asar yaratar ekan ranglarni o'z didiga, uslubiga, maqsadiga bo'ysundirgunga qadar izlaydi. Uning tagida albatta rang tushunchasi, rang nazariyasi va qonuni yotadi.

Mukammal rang nazariyasiga va amaliyotiga ega bo'lgan rassom rang orqali badiiy obraz yaratishga erishadi. Kompozitsiyada ham rang katta o'rinda turadi. Rassom qanday asar yaratmasin birinchi navbatda rangga e'tibor berishi, izlanishi muvaffaqiyat keltirishi mumkin.

Rangtasvir qadimda so'ngi nomalum (miloddan avvalgi XL–XIII ming) yilliklarda paydo bo'lgan. Janubiy Fransiya, Shimoliy Ispaniya, O'rta Osiyo va boshqa hududlarda rangtasvir asarlari saqlanib qolgan. Soz tuproqli bo'yoqlar, qorakuya, pista ko'mir bilan ishlangan, rasmlar tekis sharpa sifat, ba'zilarida hajmli qilib ishlashga harakat qilishganligi seziladi. Mezolit va neolit davrida bajarilgan ibtidoiy rasmlarda murakkab kompozitsiyalar, abstrakt tushunchalar paydo bo'la boshlagan.

Quldorlik davrida rivojlangan texnik vositalarga boy obrazlar tizimi shakllandi. Qadimiy Sharq manlaktatlari (Misr, Hindiston, O'rta

¹ Nabiyev M. Rangshunoslik va rangtasvir texnologiyasi. –T.: O'qituvchi, 1995, –15 b.


Osiyo), janubiy–sharqiy Yevropa (Yunoniston, Italiya), shuningdek, Amerika qit’asi (Markaziy Amerika)da monumental rangtasvir rivojlandi. Maqbara, ibodatxona, saroy va boy zodagonlarning uylari devorlariga turli mavzu va yo‘nalishlarda asarlar ishlandi.

Antik davrda me’morchilik va haykaltaroshlik bilan uyg‘unlashgan rangtasvir diniy mazmun bilan bir qatorda oliy tabaqa maqsadlariga xizmat qildi, nur, soya, chiziq va havo perspektivasi yuzaga keldi, maishiy va tarixiy janrlarda hamda manzara, portret, natyurmort janrlarida rangtasvir asarlari yaratildi. O‘rta asrlarda Sharq mamlakatlarida monumental rangtasvir san’ati o‘zining haqiqiy gullash davrini boshidan kechirdi. Hindiston (Amanta), O‘rta Osiyo (Tuproqqal’a, Baraxsha, Afrosiyob, Bolaliktepa) va boshqa joylarda nozik bo‘yoqlar, nafis bezak ritmi, hayotiy kuzatishlarning yorqinligiga xos bo‘lgan miniatyura san’ati rivojlandi. Rangtasvir san’ati va uning tur va janrlariga bo‘lgan qiziqish ortib bordi.

O‘z navbatida rangtasvir — tasviriy san’atning keng tarqalgan turlaridan biri bo‘lib, tasvir mazmuni va mazmun yo‘nalishiga qarab bir qator janrlarga bo‘linadi: animal, tarixiy, maishiy, portret, manzara, natyurmort, batal va boshqalar. Rangtasvir biror qattiq yuzaga rangli ashyolarda, masalan bo‘yoqlar yordamida yaratiladigan badiiy asar hisoblanadi. Rangtasvir voqelikni badiiy tasvirlash yordamida talqin qilishdir. Rangtasvir asarining g‘oyaviy mazmuni uning mavzu va syujetida mujassamlashadi. Syujetli rassom rangtasvirning ifoda vositalari (kompozitsiya, rasm, rang va ritm) orqali ro‘yobga chiqaradi.

Rangtasvir asarlari asos (maxsus ishlov berilgan mato, yog‘och, qog‘oz, tarshon, shisha, metal va boshqalar)ga rang qatlami (moy-bo‘yoq, guash, temnera, akvarel, akril, rangli shisha va rangli tosh) ayrim hollarda uni saqlash uchun ustidan berilgan yupqa lak qatlami-dan iborat bo‘ladi. Rangtasvirning muhim tasviriy vositasi — rang. Rangtasvirning tasviriy ifoda vositasi va ishlash usulida ishlatiladigan rang — qurollar xususiyati va rang eritgichlari asosiga bog‘liq (masalan, yuzasi silliq yoki g‘adir–budur berilishiga qarab asar ko‘rinishi turlicha ta’sir ko‘rsatishi mumkin).

Ushbu o‘quv qo‘llanmada yosh rassomlar uchun tasviriy san’atning rangtasvir yo‘nalishidagi ba’zi rang muammosi va qirralari haqida fikr yuritishga harakat qilindi.



3–rasm. Asosiy va qo‘shimcha ranglar.

O‘quv qo‘llanma rassom–pedagoglar, oliy o‘quv yurti rassomlik fakultet ijodkor yosh talabalariga, shuningdek tasviriy san’atga qiziquvchi talabalarga mo‘ljallangan.

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar

1. Rang nima?
2. Tasviriy san’at asarida va tabiatda rangning estetik ta’siri, idrok qilish qonunlari mavjudligi haqida nimalarni bilasiz?
3. Rang qayerdan paydo bo‘ladi va nimalardan tuzilgan?
4. Inson ruhiyatiga tasir qiluvchi rangning xususiyati nimadan iborat?
5. Rangning shakl chiziqlariga, yorug‘–soyaga munosabati qanday?
6. Rang majmuasa nima?
7. Kolorit nima?
8. Rang muammosi haqida nimalarni bilasiz?
9. Ranglar inson organizmiga, uning asab sistemasiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

Testlar

1. Rang kaloriti deganda nimani tushunasiz?

- a) ranglar qarama–qarshiligi;
- b) ranglar mutanosibligi;
- c) rangga jilo berish;
- d) rang tusi.

2. Sovuq ranglar qaysilar?

- a) bir–biriga qarama–qarshi ranglar;
- b) spektr ranglari;
- c) quyoshni, o‘tni, qizigan jismlarni eslatuvchi ranglar;
- d) qorni, muzni, suvni eslatuvchi ranglar.

3. Tus qanday ma'noni anglatadi?

- a) rang va uni bir–biridan farqini;
- b) yorug‘likning prizma orhali taralishidan, ekranda hosil bo‘lgan rangli nurlarni;
- c) iliq va sovuq ranglarni;
- d) xromatik ranglarni.

4. Qanday ranglar xromatik ranglar?

- a) sovuq ranglar, ya'ni xavo rang, zangori, to‘q binafsha va hakazo;
- b) iliq ranglar, ya'ni qizil, sariq, zarg‘aldoq va hakazo;
- c) muayyan rang tusiga ega bo‘lgan bo‘yoqlar, ya'ni qizil, yashil, zangori, zarg‘aldoq va hakazo;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

5. Sariq rang qaysi ranglar to‘plamiga kiradi?

- a) sovuq ranglarga;
- b) axromatik ranglarga;
- c) spektr ranglarga;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

6. Yashil rang qaysi rang turkumiga kiradi?

- a) xromatik va axromatik ranglar turkumiga;
- b) xromatik ranglar turkumiga;
- c) axromatik ranglar turkumiga;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

7. Binafsha rang qaysi ranglar turkumiga kiradi?

- a) xromatik va axromatik ranglar turkumiga;

- b) axromatik ranglar turkumiga;
- c) xromatik ranglar turkumiga;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

8. Kul rang qaysi ranglarga kiradi?

- a) xromatik va axromatik ranglar turkumiga;
- b) axromatik ranglar turkumiga;
- c) xromatik ranglar turkumiga;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

9. Oq rang qaysi ranglar turkumiga kiradi?

- a) axromatik ranglar turkumiga;
- b) xromatik ranglar turkumiga;
- c) iliq ranglar turkumiga;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

10. Spektr ranglari necha xil bo'ladi?

- a) 4 xil;
- b) 5 xil;
- c) 6 xil;
- d) 7 xil.

11. Rang ko'rish sezgisining buzilishi qanday xastalik?

- a) daltonogik;
- b) daltonologik;
- c) daltonik;
- d) daltonologiya.

12. Qaysi ranglar och tusli ranglar deyiladi?

- a) sariq, ko'k va qizil;
- b) yashil, qora va binafsha;
- c) qora, qizil va binafsha;
- d) pushti, sariq va oq.

13. Qo'shimcha ranglar deb qanday ranglarga aytiladi?

- a) ranglarning doira bo'lib spektr ranglari kabi joylashishiga;
- b) ranglarning o'ziga xos xarakterli xususiyatlariga;
- c) ranglar doirasining tashqi xalqasida sariq, yashil, ko'kish yashil, ko'kish binafsha va xakoza tartibda joylashgan ranglarga;
- d) sariq, qizil va zangori bo'yoqlarning aralashuvidan hosil bo'lgan omixta ranglarga.

14. Qaysi ranglar to'q deb ataladi?

- a) sariq, ko'k va yashil;

- b) sariq, ko‘k va qizil;
- c) jigar rang, ko‘k va qora;
- d) qizil, sariq va oq.

15. Spektr ranglari qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) qizil, zarg‘aldoq, sarg‘ish, yashil, zangori, ko‘k va binafsha rang;
- b) qizil, zarg‘aldoq, sariq, yashil, zangori, ko‘kish va binafsha rang;
- c) qizil, zarg‘aldoq, sariq, yashil, zangori, ko‘k va binafsha rang;
- d) zangori, qirmizi, sarg‘ish, yashil, binafsha va zarg‘aldoq.

16. Professor S.B.Kravkovning aniqlashicha qaysi rang inson ko‘zining qon bosimini kamaytirib, qonning qon tomirlaridan normal yurishini ta‘minlaydi?

- a) qizil rang;
- b) binafsha rang;
- c) ko‘k rang;
- d) zangori rang.

17. Olimlarning tajribalari anemiya — kam qonlik kasalligi uchragan bolalarni davolashda qaysi rang foydali ekanligini ko‘rsatib, bolalarda ushbu rang ta‘sirida qanday rang tanachalari ko‘paygan va kayfiyati yaxshilanib, semira boshlagan?

- a) qizil rang;
- b) binafsha rang;
- c) ko‘k rang;
- d) zangori rang.

3 §. Rangtasvir va uning janrlari

Rangtasvir texnikasi asrlar davomida muntazam ravishda mukammallasha borgan. Rangtasvirchilarni turli–tuman syujetlar borgan sari e'tiborini tortgan. Bu o'zgarishlarning barchasi XVII asrga kelib faqat rangtasvirdagina emas, balki grafika va haykaltaroshlikda ham turli janrlarni paydo bo'lishiga olib keldi. Rangtasvir janrlarining quyidagi turlari mavjud: portret, natyurmort, manzara, animalistik, tarixiy, maishiy, batal va boshqa janrilardir. Quyida biz bu janrlarning paydo bo'lishi va rivojlanish tarixiga to'xtalib o'tamiz.



4–rasm. I.I.Shishkin. O'rmondagi anhor. 1896.



5—rasm. I.K.Ayvazovskiy. Dengiz bo'yida. 1840.




6—rasm. Vadi—Rum sahrosi.



7–rasm. O‘.Tansiqboyev. Mening o‘lkam. 1951.

Manzara — janridagi asarlarda borliq, tabiatdagi ko‘rinishlar haqqoniy aks ettiriladi. Manzarada faqatgina narsa va voqiyalar emas, balki rassomning ichki kechinmalari ham ifodalanadi. Ayirim rassomlar maysazorlaru tog‘–toshlarni, cheksiz sahrolarni tasvirlashga ishqiboz bo‘lsalar, boshqalari sokin vodiylaru ketng o‘rmonlarni, sohil bo‘ylariyu to‘fonli dengizlar manzarasini tasvirlashda mohirdirlar (4–8–rasmlar).

Manzara janrida rassomlardan O‘.Tansiqboevning “O‘zbekistonda mart”, “Jonajon o‘lka”, “Mening qo‘shig‘im”, N.Kashinaning “Tog‘da bahor”, Z.Inog‘omovning “Arpa o‘rimi”, “Choyga”, R.Timurovning “Bibixonumda bahor”, “Ulug‘bek madrasasi” asarlari mualliflarga shuhrat keltirdi.



8-rasm. Lin Ching Che.

Natyurmort — fransuzcha soʻz boʻlib, “jonsiz tabiat” degan maʼnoni anglatadi. Bu janrdan rassom asosan insonni oʻrab turgan atrof muhitdagi narsalar, turmushda qoʻllaniladigan buyumlar, oziq-ovqat maxsulotlari, gullar, meva va boshqalarni tasvirlaydi (9–12–rasmlar). Rassom oʻz asarida tevarak-atrofdagi narsalarni tasvirlash orqali uning xarakterli xususiyatlarini, voqea qaysi davrda roʻy berayotganligini ham koʻrsata oladi. Taniqli ijodkor musavvirlardan R.Ahmedov, L.Salimjonova, Gʻ.Abduraxmonov va boshqalar natyurmort janrida barakali ijod qilmoqdalar.



9–rasm. N.Oripova.
Onamning roʻmoli.



10–rasm. N.Gilmanova.
Natyurmort.



11–rasm. E.P.Panov. Quyoshli
nastarin gullari.



12–rasm. A.S.Saidov. Qulupnay bilan olma.

Tarixiy janrda ishlangan suratlar orqali biz uzoq o‘tmishda bo‘lib o‘tgan voqea–xodisalar, tarixiy shaxslar, xalqlarning turmush madaniyati bilan tanishamiz (13–16–rasmlar). Tarixiy janrning ko‘rinishlaridan biri jang (botal) manzaralaridir.



13–rasm. A.Aliqulov.



14–rasm. M.Nabiyev.
Ahmad al Fargʻoniy
portreti. 1994.



15–rasm. Z.M.Kovalevskaya. Pavel
Benkov Shahi–Zinda eskizi ustida
ishlamogda. 1940



16–rasm. J.Umarbekov. Jazirama. 1975.

Botal janr — “botal” fransuzcha soʻz boʻlib, “jang”, “urush” maʼnosini bildiradi. U jang manzaralarini oʻzida aks ettiradi. Bu janrda jang va harbiy yurishlar manzarasi asosiy oʻrinni egallaydi (17–20–rasm).



17–rasm. Frans Rubo. Jonli ko‘prik.



18–rasm. V.V.Vereshchagin. Urush oqibatlari
(Апофеоз войны). 1871.



19–rasm. P.P.Rubens. Konsul Dekiy Musning jangdagi gʻalabasi va oʻlimi



20–rasm. A.Aliqulov. Yuksalish. 1993.



21–rasm. A.Dyurer.
Quyón.

bo‘la oladi.



22–rasm. J.Stabbs.
Mustang.

Botalist rassomlarning asarlarida jangchi obrazi, uning qaxramonligi, mardligi, jasorati hamda o‘z ona Vataniga bo‘lgan cheksiz muhabbati ifodalanadi. Leonardo de Vinchi, V.V.Vereshchagin, M.B.Grekov, G.K.Savitskiy, A.A.Deyneka, V.V.Volkov va boshkalar ana shunday musavvirlardandir. Taniqli ijodkor M.Nabievning “Spitamen qo‘zg‘oloni”, R.Rizamammedovning “Muqanna qo‘zg‘oloni”, T.Sodiqovning “Tumarisning qasosi”, A.Aliqulovning “Yuksalish” nomli asarlari bunga yorqin misol

Animalistik janr — o‘zgacha tasviry san‘at turidir. U lotincha “anim” — “hayvonot olami” degan ma‘noni bildiradi. Animalistik rassom hayvonot dunyosiga zo‘r qiziqish, sevgi va mahorat bilan yondoshadi. Hayvonot dunyosi ibtidoiy odamlar hayotida katta ahamiyatga ega bo‘lgan. O‘sha davrda ular g‘orlarning devorlariga kiyik, qo‘tos, mamontlarning suratlarini chizganlar. Qadimgi Yaponiya va Xitoyda hayvonlarning tasvirlari dekorativ naqshlar tuzishda hamda monumental kompozitsiyalar yaratishda asos

hisoblangan. XVI asrga kelib hayvonot olami anatomiyasini buyuk musavvirlar Leonardo da Vinchi va A.Dyurerlar ishlaganlar.

Keksa haykaltarosh va grafikchi rassom V.A.Vatagin o‘zining asarlarida to‘rt oyoqli do‘stlarini haqqoniy va ishonchli tasvirlaydi. Mashg‘ulot paytida o‘qituvchilar talabalarga nazariy bilim berish jarayonida mazmunni to‘liq ochib berilishi uchun jonli nutq orqali so‘zlash bilan birga rassomlarning turli janrlarga oid asarlaridan surat–lavhalar, adabiyotlar, kino va diafilmlar va slaydalardan unumli foydalasa rangtasvir janrlari haqida batafsilroq ma‘lumotga ega bo‘ladilar (20–23–rasmlar).



23–rasm. I.I.Shishkin. Daraxt soyasidagi podalar.



24–rasm. F.Sneyders. To'ng'iz ovida.

Maishiy janr — tasviriy san’atda bu janrdagi asarlar kishilarning kundalik hayotini, turli voqealarni o’zida mujassamlashtiradi. Rangtasvirda aks etuvchi maishiy janr ilk bor XVII asrda yashab ijod etgan Golland rassomlari — Piter de Xox, Ostade, Sten, Terborx, Vermer kabi ijodkorlar asarlarida namoyon bo’ladi. Realist rassomlardan P.Fedotov, V.Perov, V.Maksimov, V.Makovskiy, K.Savitsskiy, I.Repin kabilar maishiy janrning taraqqiyotiga katta hissa qo’shdilar. O’zbek rassomlaridan R.Ahmedov, M.Saidov, Z.Inog’omov, R.Chorievlar ham shu janrda barakali ijod etganlar (25–29–rasmlar).



25–rasm. A.Aliqulov. Sozandalar. 2005.



26–rasm. Konstantin Razumov.



27–rasm. B.Jalolov. Muhabbatdan yuqori sevgi yo‘q. 2014.



28–rasm. Fedot Vasilevich Sichkov.



29—rasm. I.N.Kramskoy. Rassomning rafiqasi
Sofiya Nikolayevna va qizi
Sonya.

Portret — rangtasvir janrlari ichida eng qadimiylaridan bo‘lib, kishilarning tashqi va ichki kechinmalarini tasvir orqali ochib beradi. Portret janrida ishlangan tasviriy san‘at asarlari bizga musavvir yashagan davrni, madaniyatini hamda tasvirdagi kishining ruhiyatini asarda talqin etadi (30– va 31–rasmlar).



30–rasm. Jo‘ra Asron.
Ho‘ja Axror Valiy
portreti. 1993.



31–rasm. A.Yusupov.
San‘atshunos
N.Andakulova portreti.
2015.

Portret — bitta odam yoki odamlar guruhining tasvirlari bilan farq qiluvchi tasviriy san‘at janrlaridan biridir. Portretda rassom insonning tashqi, individual o‘xshashligini ko‘rsatibgina qolmasdan, inson xarakteri, uning ma‘naviy dunyosini ham ochib bera oladi (32–rasm).

Portretning turli ko‘rinishlari mavjud. Ularga belgacha bo‘lgan portret, byust (haykaltaroshlikda) (33–rasm), bor bo‘yi bilan chizilgan portret (34–rasm), odamlar guruhi portreti (35–rasm), interer yoki manzara fonidagi (36–rasm) portretlar kiradi. Tasvirlash xarakteriga ko‘ra portret ikkita asosiy guruhga ajratiladi: ya‘ni odamning bor bo‘yi bilan chizilgan (otda, o‘tirgan yoki turgan holatda) portreti (parad portreti) (37–rasm) va beligacha, yelkagacha chizilgan portret (38–rasm).

Bitta xolstda chizilgan tasvirlarning soniga qarab portretlar ikki kishilik (39–rasm) va guruh (40–rasm) portretlarga ham ajratiladi. Turli xolstga chizilgan, lekin kompozitsiyasi, formati va koloritga ko‘ra bir-biriga mos bo‘lgan portretlar juft portretlar deyiladi. Ba’zi hollarda bunday portretlarda er–xotinlar tasvirlanadi. Ko‘pincha portretlar yaxlit ansamblni — portretlar galereyasini tashkil qiladi.

Portretda odam qandaydir, allegorik, mifologik, tarixiy, teatrlashtirilgan yoki adabiy personaj holatida tasvirlangan bo‘lsa bunday portretlarga kostyumlashtirilgan portretlar deyiladi. Bu portretlarni nomlashda ko‘pincha «ko‘rinishda» yoki «obrazda» so‘zlari qo‘shiladi (masalan, A. Abdullayevning “Abror Hidoyatov Otello rovida” (41–rasm)). Portretlar o‘lchamiga ko‘ra ham ajratiladi, masalan miniatyura portretlari (42–rasm). Bundan tashqari rassomlar o‘zlarining portretlari — avtoportretlarni ham ishlashadi. Portretlar faqatgina modelning individual belgilarinigina emas, balki shu odam yashagan davr ruhini ham o‘zida aks ettiradi.

Avtoportret — portret janrining ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, rassom o‘zining tashqi qiyofasini o‘zi tasvirlaydi (43–rasmlar).

Portret san’ati bir necha ming yillik tarixga ega. Qadimgi Misrda ham haykaltaroshlar odamning tashqi ko‘rinishiga juda o‘xshagan tasvirlar yaratishgan. Chunki ularning fikricha odam dunyodan o‘tganidan so‘ng un-



32–rasm. Chingiz Ahmarov. Mukarama Turg‘unboyeva portreti.



33–rasm. Tomas Gejnsboro. Gertsoginiya de Bofor portreti (Moviy libosdagi qiz).

ing ruhi shu yaratilgan o'xshash tasvirlarga ko'chishar ekan. Ular o'zlarining yorqin hayotiy obrazlilik, shaklining hajmliligi bilan ajralib turadi.

Qadimgi Gretsiyada shoirlar, faylasuflar va boshqa mashhur kishilar portretlarini ishlash urf bo'lgan. Qadimgi Rim portret haykaltaroshligiga xos bo'lgan asarlar o'zlarining haqqoniyligi va aniq psixologik xarakterini ochib berishi bilan mashhur bo'lgan. Ular insonning individual belgilarini aks ettirgan.



35–rasm. P.P.Benkov. Dugonalar (Frontdan maktub). 1945.

Insonning yuzini haykaltaroshlikda yoki rangtasvirda tasvirlash barcha davrlarda ham rassomlarni o'ziga jalb etgan. Portret janri ayniqsa Uyg'onish davrida gullab yashnadi.

Uyg'onish davri rassomlari portret obrazlarining mazmunini chuqurlashtiradi, ularni intellekt, qalb uyg'unligi va ko'pincha ichki dramatism bilan tasvirlaydi. O'sha davrning buyuk rassomlari — Rembrand Van Reyn, F.Gals, Van Deyk, D.Velaskes oddiy insonlarni tasvirlab, ulardagi insonparvarlik va ko'ngil boyligini ko'rsata olishgan.

Rossiyada portret janri XVIII asr boshlaridan rivojlana boshladi. O'sha davr rassomlari F.Rokotov, D.Levitskiy, V.Borovikovskiy-lar buyuk insonlarning portretlarini yaratganlar. Ayniqsa ayol obrazlari juda maftunkor va go'zal, lirika bilan sug'orilgan.

Sayyor rassomlardan V.Perov, M.Kramskoy, I.Repin buyuk zamondoshlarining portretlarini yaratishgan. Portretda tasvirlanayotgan odamlarning individual va tipik belgilari, ma'naviy-ruhiy olami ularning yuzi, holati va hatti-harakatlari orqali ochib berilgan.

XX asrda portret o'zida turli-tuman, qarama-qarshi tendensiyalarni yorqin realistik, individual xarakteristika va modelning abstrakt, ekspresiv deformatsiyasini (P.Pikasso, A.Modilyani, E.A.Burdel, S.Konenkov, M.Nesterov, P.Korin) Rossiyada yaratadi.

Portretlar bizga faqat turli davrlarda yashab o'tgan insonlarni aks ettirib beribgina qolmay, balki rassomning tasvirlanayotgan insonga bo'lgan munosabatini va dunyoni qanday qabul qilganini ham aks ettiradi.

Portret janri O'zbekiston rangtasvircilarining kuchli jixatlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda kuchli realistik maktab tarkib topishi ajoyib portretnavis-rassomlar sulolasini vujudga keltirdi. Ular orasida A.Abdullayev, R.Ahmedov, R.Choriyev, T.Oganesov, V.Burmakin kabi portret ustalari jahonda keng tan olinganligi e'tirof etiladi. Mustaqillikning ijobiy ta'siri o'laroq, san'atning turli yo'nalish va uslublarida erkin ijodga yo'l ochildi. Jumladan portret janri keng ko'lamda rivojlandi. Buning natijasida portret zamonaviy badiiy jarayonida yetakchi bo'lib qoldi.

Respublikamizning yetakchi badiiy oliygohi K.Behzod nomidagi



36-rasm. Ser Joshua Reynolds.

Jigarrang
kiyimdagi bola.



37–rasm. Jak–Lui David.
Banopart Sen–Bernar
qoyasida.

Butun umri davomida u iste’dodli va ma’naviy go‘zal insonlarga hurmatini saqlab qoldi. Musavvir mo‘yqalamiga mansub har bir portret kishilarning chuqur ma’naviy dunyosini akslantiruvchi, rassom bilan



38–rasm. M.Nabiyev.
Rassom Sharifjonova
portreti. 1959.

Milliy rassomlik va dizayn institutida aynan, realistik maktab asosida o‘quv mashg‘ulotlari olib boriladi. Bu esa rangtasvirning realistik janrda ijod etgan o‘tmish ijodkorlarimizning boy merosini tan olinganligi, shuningdek, jahon san’ati ilg‘or tajribasini chuqur o‘rganishdan dalolat berib, butun dunyoda avangard yo‘nalish bilan bir qatorda, aynan, realistik yo‘nalish rivojiga e’tibor bilan qaratilganligini ko‘p jihatdan namoyon etadi.

1990 yillarda o‘zbek rangtasvirida portret janrining asoschisi, yetakchi portretnavis, akademik A.Abdullayev ham ijodiy faoliyatini davom ettirdi.

portret qahramoni va portret bilan tamoshabin o‘rtasidagi haqiqiy va ochiq munosabatni taqozo etuvchi manbadir.

Akademik R.Ahmedov o‘z portretlarida epik kenglik va teranlikka erishadi. Uning qahramonlari oddiy insonlar, qishloq kishilari bo‘lib, aynan, ularda rassom donishmanlikni, ma’naviy poklikni, yuksak axloqiy qoidalarni gavdalantiradi (“Jizzaxlik ayol” (1992), “Nigina” (1993)).

Zamondoshlar obrazlari akademik R.Choriyevni ham qiziqtirgan va o‘ziga jalb etgan. Ko‘p sonli ijodiy safarlar natijasida, rassomning butun boshli portretlar galereyasi vujudga keladi. Ular orasida “Boysunlik qariya” (1996), “Sayroblik go‘zal” (1997)

singari o‘z xalqining eng yaxshi ma’naviy–axloqiy fazilatlarini taranum etuvchi murakkab kompozitsion yechimdagi portretlari sanab o‘tiladi. Rangtasvirchi R.Choriyevning kuchli jihati shundaki, u doimo naturadan ishlaydi.

Ajoyib rangtasvirchi A.Ikromjonovning ilk ishlarida realistik asos kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Uning portretlari yuksak mahorat va diqqat bilan ishlanganligi, bo‘yoqlarning fakturali qo‘yilishi, naturani hatto fotosuratgacha tahlil etib chizilganligi, shuningdek, obrazning ruhiy to‘laqloniligi (“Malika portreti” (1993)) bilan ajralib turadi.

O‘z ohanglari va mo‘yqalamiga ishonch bilan yondasha olgan R.Xudayberganovning portretlari ham kishini befarq qoldirmaydi (“Xojar xola” (1999)). Avvalgi ustalar uslubini qo‘llagan holda rassom hech qanday yordamchi vositalarsiz, to‘q fonda portretlar yaratadi–ki, ular qahramon qiyofasini yanada mukammalroq chiqishida yetakchilik qiladi. Uning ajoyib badiiy asarlaridan biri “Navro‘z 2001” ko‘rgazmasida namoyish etilgan “Bastakor R.Abdullayev portreti”dir.



39–rasm. Jon Seymur Lukas. Interval. 1905.

1990 yillarda portret janrida B.Jalolov faol ijod qildi. Shuni ta'kidlash joizki, realistik chizmalar yaratishda u mislsiz darajaga erishadiki, bu borada unga hech kim tenglasholmaydi. Oxirgi o'n yillikda yaratilgan "Saudiya Arabiston qiroli Araviy Fahd ibn Abdul Aziz" (1992), "Akademik S.Azimov portreti" (1998) va boshqa polotnolarini rassomning o'zbek rangtasvirchilar orasida dunyo talablari darajasida yaratgan asarlari sirasiga qo'shish mumkin.




40–rasm. F.Goyya. Uzum teruvchilar. 1792.

S.Rahmatov shunday rassomlar sirasiga kiradi—ki, uning ijodida portret asosiy o‘rin egallaydi. Oxirgi o‘n yilliklarda yaratgan eng yaxshi portretlari qatorida “Yunus Rajabiy portreti” (1993), “GFRn-ing O‘zbekistondagi elchisi G.Kun portreti” (1999) alohida ahamiyat kasb etadi.




41–rasm. A.Abdullayev. Abror Hidoyatov Otello rovida.

Keyingi yillar ko‘rgazmalarida O‘zbekistonning mashhur rangtasvirchi rassomi V.Burmakin portretlari munosib joy oldi. Lekin, rassomning avvalgi ishlariga qiyoslangan tarzda, 90–yillarda yaratgan portretlarini bir muncha sust ekanligi tanqidchilar tomonidan ta’kidlanadi.



42–rasm. N.Oripova. Afrosiyob malikalari.




Ro‘zi Choriyev.



H.Mirzaxmedov.



D.Azizov.



R.Matevosyan.

43–rasm. Avtoportretlar.

Onalar va bolalar yili munosabati bilan tashkil etilgan “Qo‘li guldir o‘zbek ayolin” ko‘rgazmasiga bir qator ayol portretchi rassomlar: A.Mamatova “Yulduz Usmonova portreti”, Sh.Abdullayevaning “O‘zbek madonnasi”, M.Shuvayevaning “Lola” portreti, Z.Sharipovanning “Avtoportret”lari namoyish etildi.

O‘zbekiston Badiiy akademiyasi Ikuro Xirayama Xalqaro madaniyat karvon saroyida 2020 yil 7–mart kuni “Do‘stlik” ordeni sohibasi, taniqli rassom — Nodira Oripovanning ijodiy namunalari jamlangan “Afrosiyob malikalari” nomli ko‘rgazmasi bo‘lib, ko‘rgazmada musavviraning turkum asarlari namoyish etilib san‘at ixlosmandlarida kata qiziqish uyg‘otdi.

Portretchi rassomlar sonini ta‘kidlab o‘tganlar bilan chegaralab bo‘lmaydi. Ular qatorida o‘z matolarida zamondoshlarimiz obrazlarini muhrlayotgan Y.Tursunnazarov, B.Salomov, I.Baxromov, Ch.Bekmirov, M.Nuriddinov, O.Bakirov, B.Nazarov va boshqalarni sanab o‘tish lozim.

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar

1. Rangtasvirning qanday janrlari bor?
2. Rangtasvir janrlari ichida eng qadimiylaridan bo‘lib, kishilarning tashqi va ichki kechinmalarini tasvir orqali ochib beradigan janr

nima deb ataladi?

3. Turli afsonalar va rivoyatlar asosida yaratilgan bo‘lib, kishilarni ezgulikka, porloq kelajak sari undovchi janrning nomi nima?

4. Portret janrining qanday turlari mavjud?

5. Tasviriy san’atda qaysi janrdagi asarlar kishilarning kundalik hayotini, turli voqealarni o‘zida mujassamlashtirgan?

6. Qaysi janr ustalari hayvonot dunyosiga zo‘r qiziqish, sevgi va mahorat bilan yondoshadi?

7. Qaysi janrda jang va harbiy yurishlar manzarasi asosiy o‘rinni egallaydi?

8. Qaysi janrda ishlangan suratlar orqali biz uzoq o‘tmishda bo‘lib o‘tgan voqea–xodisalar, tarixiy shaxslar, xalqlarning turmush madaniyati bilan tanishamiz?

9. Qaysi janrda rassomkar asosan insonni o‘rab turgan atrof muhitdagi narsalar, turmushda qo‘llaniladigan buyumlar, oziq–ovqat maxsulotlari, gullar, meva va boshqalarni tasvirlaydi?

10. Qaysi janridagi asarlarda borliq, tabiatdagi ko‘rinishlar haqqoniy aks ettiriladi?

Testlar

1. Animalistik janrda nimalar aks ettiriladi?

a) insonni o‘rab turgan atrof muhitdagi narsalar, turmushda qo‘llaniladigan buyumlar, oziq–ovqat maxsulotlari, gullar, meva va boshqalar aks ettiriladi;

b) borliq, tabiatdagi ko‘rinishlar haqqoniy aks ettiriladi;

c) hayvonot dunyosi aks ettiriladi;

d) uzoq o‘tmishda bo‘lib o‘tgan voqea–xodisalar, tarixiy shaxslar, xalqlarning turmush madaniyatini aks ettiriladi.

2. Rangtasvir asarida tarixiy shaxsning siymosi aks ettirilgan bo‘lsa, bir vaqtning o‘zida ushbu asar ikkita janrga mansub bo‘lishi mumkinmi?

a) mumkin, agar tarixiy shaxs oddiy holatda tasvirlangan bo‘lsa, ushbu asar bir vaqtning o‘zida tarixiy va portret janriga, jangchi holatida tasvirlangan bo‘lsa – tarixiy va batal janriga, tarixiy shaxsning kundalik hayotini, turli voqealarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lsa – tarixiy va maishiy janrlariga mansub sanaladi;

b) mumkin, faqat tarixiy va portret janrlariga mansub bo'lishi mumkin;

c) mumkin emas;

d) mumkin, faqat tarixiy va bataj janrlariga mansub bo'lishi mumkin.

3. Qaysi o'zbek portretchi rassominig avtoportreti turli davr va xalqlarga mansub buyuk rassomlar avtoportretlari saqlanayotgan dunyoning yirik to'plami, Uffitsidagi (Italiya) kartina galeriyasigaga qabul ailingan?

a) M.Nabiyev;

b) A.Abdullayev;

c) R.Ahmedov;

d) R.Choriyev.

4. Tarixiy janrga xos ta'rif qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

a) insonni o'rab turgan atrof muhitdagi narsalar, turmushda qo'llaniladigan buyumlar, oziq-ovqat maxsulotlari, gullar, meva va boshqalarni tasvirlaydi;

b) borliq, tabiatdagi ko'rinishlarni haqqoniy tasvirlaydi;

c) hayvonot dunyosini tasvirlaydi;

d) uzoq o'tmishda bo'lib o'tgan voqea-xodisalar, tarixiy shaxslar, xalqlarning turmush madaniyatini tasvirlaydi.

5. Natyurmort janriga xos ta'rif qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

a) insonni o'rab turgan atrof muhitdagi narsalar, turmushda qo'llaniladigan buyumlar, oziq-ovqat maxsulotlari, gullar, meva va boshqalarni tasvirlaydi;

b) borliq, tabiatdagi ko'rinishlarni haqqoniy tasvirlaydi;

c) hayvonot dunyosini tasvirlaydi;

d) uzoq o'tmishda bo'lib o'tgan voqea-xodisalar, tarixiy shaxslar, xalqlarning turmush madaniyatini tasvirlaydi.

6. Manzara janriga xos ta'rif qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

a) insonni o'rab turgan atrof muhitdagi narsalar, turmushda qo'llaniladigan buyumlar, oziq-ovqat maxsulotlari, gullar, meva va boshqalarni tasvirlaydi;

b) borliq, tabiatdagi ko'rinishlarni haqqoniy tasvirlaydi;

c) hayvonot dunyosini tasvirlaydi;

d) uzoq o'tmishda bo'lib o'tgan voqea–xodisalar, tarixiy shaxslar, xalqlarning turmush madaniyatini tasvirlaydi.

7. Batal janriga xos ta'rif qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

a) insonni o'rab turgan atrof muhitdagi narsalar, turmushda qo'llaniladigan buyumlar, oziq–ovqat maxsulotlari, gullar, meva va boshqalarni tasvirlaydi;

b) kishilarning tashqi va ichki kechinmalarini tasvir orqali ochib beradi;

c) jang va harbiy yurishlar manzarasi asosiy o'rinni egallaydi;

d) uzoq o'tmishda bo'lib o'tgan voqea–xodisalar, tarixiy shaxslar, xalqlarning turmush madaniyatini tasvirlaydi.


*Yoshlar, o'zlarini ilm–fan, tasviriy san'atda
sinamoqchi bo'lsalar, avvalo rasm chizishni mu-
kammal bilmoqlari lozim.*

Leonardo da Vinci

II BOB. AMALIY MASHG'ULOTLAR


1 §. Rangtasvir haqida tushuncha. Realistik rangtasvirning maqsad va vazifalari. Xolis fonda 2–3 geometrik jismdan tuzilgan sodda natyurmort ishlash (grizayl)

3500 yillar oldin inson kitob yozish va unga rasmlar ishlashni boshladi, bu bilan u akvarel rangtasviriga asos solganligini bilmas edi. Yozishda qo'llanadigan Cuperus-papirus o'simligini topib, misrliklar bunga birinchi qadamni tashlagan edilar. Kitoblarga rasm ishlashda jigarrang uchun tabiiy oxra va siena, qizil rang uchun kinovar, qora rang uchun kuydirilgan iva, oq bo'yoq uchun gips kabi minerallar asosida yaratilgan shaffof bo'yoqlar ishlatilgan edi. Bu bo'yoqlar tuxum sarig'i va gummiarabik bilan qo'shib tayyorlanib, suv bilan ishlatilar edi. Boshqacha qilib aytganda bu hozirda biz ishlatib kelayotgan akvarel bo'yog'i edi. Yuqorida aytib o'tilgan ilk akvareldan hozirgi zamonaviy akvarel bo'yog'idan shakli, rangi va janrning asosiy xususiyatlari ancha o'zgarganligini kuzatish mumkin, lekin bo'yoqning tarkibi o'shaligicha qolgan. Juda ko'p mashhur rassomlar qatorida rokoko uslubida ijob qilgan, Vinetsiya rangtasvir maktabi namoyandalaridan biri, taniqli freska va gravyurachi rassom Jovani Battista Tiepoloni (1696, Vnetsiya — 1770, Madrid) ham akvarelning xususiyatlaridan mohirona foydalangan.



44–rasm. Axromatik ranglar.

Jovanni Battistaning chizish usuli qiyin ko‘rinsa ham o‘rgansa bo‘ladigan jihatlari ko‘p. Rassomning asarlari yengil chizilgan chiziqlar suvli mo‘yqalamda yuvish yo‘li bilan birga olib boriladi. Uning chizmatasvirlarini unga yaqin bo‘lgan tugallangan mo‘jaz rangtasviri bilan solishtirsangiz ajoyib, nafis chiziqlarning o‘zidayoq rassom kompozitsiyaning asosiy ilk g‘oyasini ifodalab qo‘yanining guvohi bo‘lasiz. Zamonaviy ta‘limda ham rangtasvirni o‘rgatishning ilk bosqichlarida akvarel bo‘yog‘ida ishlashni o‘rganishdan boshlanadi.



45–rasm. Xromatik ranglar.

Unda rassom uchun eng kerakli bo‘lgan soya-yorug‘, rang-tus munosabatlari, asosiy rang, qo‘shimcha ranglar haqidagi dastlabki tushunchalar shakllantirilib boriladi. Tusni aniqlashda yo‘l qo‘yilgan xato noto‘g‘ri rang berishga olib keladi, shuning uchun tusni to‘g‘ri idrok qilish rassomning asosiy vazifasi sanaladi. Bundan ko‘rinib turibdiki rang va tus o‘zaro bir–biriga bog‘liq tushunchalardir. Rassom uchun asar yaratishda shakl bilan birga (ranglar) ifoda ham

muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birgalikda yaxshi asar yaratish uchun maqsadning o'zi yetarli emas (eng yomon san'at asarlari jiddiy kishilar tomonidan yaratilishini esdan chiqarmaslik lozim).

Bo'lg'usi rassomlar uchun yana shuni bilib qo'yish foydaliki, kunda mashq qilgan ko'z rangning yorug'ligini 180 tusini, to'qligining 10 pog'onasini farqlay oladi. Tafakkuri kamol topgan inson ko'zi rang tuslardan taxminan 360 tasini farqlay oladi.

Ranglar axromatik va xromatik ranglarga bo'linadi. Axromatik ranglar faqat o'zaro tus nisbatlari bilan bir biridan farqlanadi (44-rasm). Xromatik ranglar deganda barcha ranglar, ya'ni ma'lum bir tusga ega bo'lgan ranglar tushuniladi (45-rasm). Bu ranglarning yorqinligi axromatik rang bo'lgan, ya'ni ma'lum bir tusga ega bo'lgan ranglar — qora, kulrang va oq ranglardan boshqachaligi bilan farqlanadi. Agar bir xromatik rangga kulrang qo'shilsa, u xira tortib, och-to'qligi o'zgaradi. Ranglar iliq yoki sovuq ranglar bo'lishi mumkin (46-rasm). Shuningdek natyurmort ishlash jarayonida yana qarama-qarshi ranglarga ham duch kelamiz. Har qanday axromatik rang to'q ranglar orasida ocharib ko'rinib, och ranglar orasida esa to'qlashib ko'rinadi. Bu tus kontrastlari deyiladi. Yonidagi rang ta'sirida rang tusi o'zgarishi rang kontrasti deyiladi.

Xromatik rangning yorqinligi axromatik rang bo'lgan kulrangdan boshqachaligi bilan farqlanadi. Agar



46-rasm. Rang tuslari.



47-rasm. Birinchi bosqich.

bir xromatik rangga kulrang qo'shilsa, u xira tortib, och to'qligi o'zgaradi.

Yorqinlik xromatik va axromatik ranglarga tegishli sifatdir. Uni oqishlik bilan adashtirmaslik kerak (narsalar, buyumlarning rang sifatleri va h.k.). Odatda musavvirlar yorqin bo'yoqlar nisbatini tuslar nisbati deb atashadi. Asarda aks etgan yorqinlik bilan rang tuslarini, yorug'—soya bilan ranglar tizimini adashtirmaslik kerak. Tasvir yorqin tuslar chizilgan deganda avvalo yorqin bo'yoqlar nisbati ko'zda tutiladi.

Axromatik ranglar: ya'ni oq, kulrang va qora ranglar faqat yorqinlik bilan tavsiflanadi. Yorqinlik bo'yicha farqlar ba'zi ranglarning ochroq, ba'zilarining esa to'qroqligidadir. Buyum shakli sirtidagi ranglarning har xil nozik turlanishi, tus o'zgarishlari natijasida ularning hajmini kuzatamiz, bizdan qanday darajadagi uzoqlikda joylashganligini his qilamiz, shu bilan masofa, perspektivasi haqida tushunchaga ega bo'lamiz. Buyumlardagi tuslarni ko'rish va ajratish ranglarni aniqlashga qaraganda ancha qiyinroq.

Tuslarni yaxshi ajratishga o'rgangan rassom xilma-xil ranglar, ularning qay darajada och yoki to'qlikda turlanishini ko'ra olish, his qilishda qiynalmaydi. Shubhasiz, realistik rangtasvirda tus hal



qiluvchi muhim ahamiyatga ega. Tuslarni o'rganish uchun boshlovchi rassom avvalo bir xil ranglar (grizayl) da ranglavhalar bajarishni mashq qilishi kerak.

Ranglavha (fransuzcha *“etude”* — o'rganish; mehnat, naturadan bajarilgan ma'nosida) — bu ayniqsa bo'ljak rassom uchun o'zining kasbiy ko'nikmalarini takomillashtiradigan, tasvirni jozibali, haqqoniy tasvirlash mashqi hisoblanadi. O'quv jarayonini bochqichlarga ajratish bilan tus nisbatlarini o'rganish muammolarning yechimini topish mumkin: rangtasvir mashg'ulotlaridagi birinchi bosqich — bu kartinadagi tuslar nisbatini

48—rasm. Ikkinchi bosqich.

aniqlash va ishlov berish, ya'ni berilgan vazifani "grizayl" texnikasida bajarish hisoblanadi. Shuning uchun o'quv jarayonida talabalarga grizayl texnikasida ishlashni o'rgatish maqsadida bu mashg'ulotlar o'quv dasturlariga kiritilib, bu vazifalarni bajarish talabalar uchun shart qilib belgilab qo'yilgan.

Qog'ozning oq yuzasi va rangning eng ochdan to eng to'qqacha bo'lgan tuslaridan foydalanib rassom tasvirlanayotgan buyumning nafaqat shakli, balki hajmi, yorug'–soyasi, fazoda joylashishi va har bir materialning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalashi mumkin. Grizaylda rangning ahamiyati yo'q, unda buyumning faqat tusi hisobga olinadi. Biz akvarelda grizayl ishlashning bosqichlarini ko'rib chiqamiz:

Birinchi bosqich (47–rasm):

Birinchi bosqichda albatta komponovkadan boshlanadi. Boshlang'ich eskizda komponovkaning vertikal, gorizontal, kvadrat kabi har xil variantlarini bajarib ko'rish mumkin. Qachonki eskizda kompozitsiya haqida bir to'xtamga kelgach, asosiy formatda ishlashga o'tish mumkin. Asosiy formatda qo'yilgan natyurmordagi buyumlarning umumiy ko'rinishi belgilanib, keyin alohida buyumlar topilgan katta yuzada joylashtirib chiqiladi. Bunda har bir buyumning yonidagi jismlarga nisbati, ulardagi burchak qiyaliklari, doira yoki oval shakllarining o'zaro nisbatlari sinchiklab o'rganib chiqiladi.



Ikkinchi bosqich (48–rasm):

Perspektivadagi asosiy tekisliklar, shuningdek buyumlar joylashgan tekislikni belgilanadi. Maydalab ishlamagan holda har bir buyumning xarakterli xususiyatlarini, joylashgan o'rnini, barcha buyumlarning o'zaro nisbatlarini aniqlashtirib chiqiladi.

Uchinchi bosqich (49–rasm):

Bu bosqichda ranglar yechimiga ishlov berib boriladi. Natyur-

49–rasm. Uchinchi bosqich.



50–rasm. To‘rtinchi bosqich. Ishni katta va yaxlit rang nisbatlarida ishlashni davom ettiring. Natyurmortdagi kenglik, fazoviy perspektivani ifodalash uchun birinchi plandagi ranglar qarama–qarshiligini kuchaytirib, buyumlarni aniqroq tasvirlang, orqa planni yengillashtirib, ba’zi joylarini ochar-tirish mumkin. Shu yo‘l bilan kompozitciyadagi fazoviy bo‘shliqni ifodalanadi. Faqatgina buyumlarning tusiga emas, balki hajmi, shakli hamda uning materialini ham berish uchun diqqatingizni jalb qiling.


mortning eng to‘q va eng och qismlarini aniqlashtiriladi. Natyurmortning qanday yoritilganligiga e’tibor berish juda zarur. Katta yuzadagi umumiy yorug‘ va soya joylarini topib borilib, avval soya qismlariga ishlov beriladi. Yorug‘ va soyalarni ishlash bilan buyumlar hajmini berish mumkin. Ranglar bilan ishlashda rangni yaxlit berishga harakat qiling.

***To‘rtinchi bosqich* (50–rasm):**

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar

1. Rokoko uslubida ijod qilgan, Vinetsiya rangtasvir maktabi namoyandalaridan biri, taniqli freska va gravyurachi rassom kim va uning ijodiy faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
2. Ranglarni qanday turlarga bo‘lib o‘rganish mumkin?
3. Axromatik ranglar deb qanday ranglarga aytiladi?
4. Xromatik ranglar deb qanday ranglarga aytiladi?
5. Grizayl qanday ma’noni bildiradi?
6. Grizayl ishlash texnikasini bilasizmi?

Mastaqil ta'lim



51–rasm. Mustaqil ishlash uchun namunalar.

2 §. Gipsli geometrik jismlardan tuzilgan natyurmortning rangtasvirini cheklangan ranglarda bajarish (akvarel)


Akvarelda rangtasvir ishlash juda murakkab hisoblanadi. Har qanday yangi bo‘lgan mashg‘ulotga qo‘l urilar ekan, maqsadga etish uchun inson har xil ko‘zda tutilmagan qiyinchiliklar oqibatida bu mashg‘ulotni keyingi safarga surish yoki umuman to‘xtatishga harakat qiladi. Akvarelda ishlashni o‘rganish uchun talabadan texnika, ko‘nikma, ko‘p mehnat va sabr–qanoat bilan tinmay mashqlar qilishni talab qiladi. Tasviriy san‘atda ranglar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning xususiyatlarini quyidagicha: rang tusi — och–to‘qligi va to‘yinganligi ajratish mumkin.



52–rasm. Tanlangan 2 xil bo‘yoq tusi.

Rangtasvir mashg‘ulotlarida ranglari bir–biriga yaqin bo‘lgan buyumlardan tashkil topgan natyurmortni chizishga oid mavzularning maqsadi talabalarni narsaning o‘ziga qarab rasm chizish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishdan iborat. Narsaning o‘ziga qarab rasm chizish esa tasviriy san‘at mashg‘ulotlarining asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Bu mashg‘ulot jarayonida talabalarning narsa va xodisalarning kuzata bilish qobiliyatlari rivojlanadi, xotiradan va tafakkurdan rasm chizish malakalari ortadi, narsalarning fazodagi holatlarini aniqlay bilish, ularning hajmi, shakli, rangini, shu‘la — soyasi yordamida tekislikda tasvirlash tushunchalari o‘zib boradi. Kuzatish jarayonida talabalar narsalarning o‘lchovlarini o‘zaro solishtiradilar, ular o‘rtasidagi farqni taqqoslash yo‘llari orqali o‘rganadilar.

Talabalar dars jarayonida birinchidan rasm chizishning asosini o'rgansalar, ikkinchidan ijodiy qobiliyatlari o'sib, estetik jihatdan tarbiyalanib boradilar, o'ziga qarab rasm chiziladigan narsalarni to'g'ri ko'rishga asosiy shaklning bo'yini eniga nisbatan qo'zg'oz yuziga kompozitsion jihatdan to'g'ri joylashishni, bo'laklarning nisbiy o'lchovini



53–rasm. Birinchi bosqich.


ko'rsatib, ularning bir–biriga bog'liqligini, ranglarini aniqlash va ularning o'ziga xos xususiyatlariga alohida ahamiyat beriladi.

Tasviriy san'at darslarida tik, yotiq, qiya chiziqlarni to'g'ri chiza olishni, kvadrat, to'g'ri burchakli, to'rtburchakli, uchburchak, doira va boshqalarni tassavur qila olish, to'g'ri chiza bilish hamda chiziqlarni ko'z chamasida teng bo'laklarga bo'lish qobiliyatlarini o'stirib borish kerak bo'ladi. Chizilgan rasmni akvarel, guash bo'yoqlari bilan bo'yashdan oldin uning rangini to'g'ri aniqlab olish va shu rang nomini to'g'ri aytishga talabalarni o'rgatib borish talab etiladi.

Buning uchun o'qituvchi maxsus tayyorlangan rangli plyonka, oyna yoki polietilin (sariq, qizil va zangori asosiy ranglar) materiallari orqali ko'rgazmali qurol tayyorlab talabalar bilan savol–javob yordamida tanishib chiqsa yaxshi natijalarga erishadi. Chiziladigan narsaning maxsus nusxasi katta o'lchovda bo'lib, yaxshi ko'rinadigan joyga o'rnatiladi.

Cheklangan ranglar yordamida mashqlar bajarish orqali akvarelning ushbu xususiyatlarini o'rganish rassom uchun juda foydali. Bu mashg'ulotlar natijasida siz jozibador chiziq'lar va rang surtmalaridan mohirona foydalanish texnikasiga oid maxsus ko'nikmalarni egallash jarayoni qanchalik tez yoki uzoq, yengil yoki og'ir kechishiga baho bera olasiz. O'zida bunga nisbatan ishonch yuqori bo'lgan kishi maqsadga tezda erishishi muqarrar.

Qalamtasvir va rangtasvirni o'rganishning yaxshi tomoni, bu kishidagi kuzatish, yaxlit ko'ra olish va ko'rinishdagi asosiyni tan-



54—rasm. Ikkinchi bosqich.


Lekin bu ikki havorang va karmin (to‘q qirmizi (кармин, бордо — пунцов)) rangdan qora va qog‘ozning oqligini hisobga oladigan bo‘lsak mashq jarayonida foydalanadigan yana bir necha xil rang-tuslar hosil bo‘ladi. Bu bilan biz faqat mana shu ranglardangina foydalanamiz degani emas, bu ranglardan tashqari ikki rangni aralashtirish bilan bir necha tuslar ham hosil bo‘ladi. Mashq uchun quyidagi ashyo va anjomlardan foydalanamiz: akvarel bo‘yog‘i, suv, mo‘yqalam, politra, qog‘oz, qalam.

Birinchi bosqich (53—rasm):

Mashqning birinchi bosqichida jismlarning konstruktiv tuzilishining boshlang‘ich qalamchizgilarini chizib, kompozitsiyadagi perspektivani aniqlab olamiz. Siz nimani ko‘rayotganligingizni rangda ifodalashingiz ranglarni idrok qilish va tasvirlashning texnik tilini birlashtiruvchi murakkab jarayon hisoblanadi. Bu siz ko‘rayotgan narsangizdan oddiy nusxa ko‘chirish degani emas. Har bir tasvirlanayotgan obraz qanchalik aniq bo‘lmasin rassomning qalbida jo bo‘lgan estetik hissi va hissiy tajribasining mavhumligidan kelib chiqib aks ettirilishi kerak.

Ikkinchi bosqich (54—rasm):

Qog‘oz yuzasini ho‘llab chiqamiz, qurigandan keyin geometrik jismlarga tegmagan holda fonni mo‘yqalam bilan yana bir bor ho‘llaymiz. Bu safar fon qurib ul-



55—rasm. Uchinchi bosqich.

lash badiiylashtira olish ko‘nikmasini oshiradi. Biz fikr yuritayotgan amaliy mashg‘ulotimiz cheklangan ranglardagi akvarelda natyurmort ishlash mashg‘ini ko‘rib chiqamiz. Mavzumizda silindr, kub va shar tasvirini rangdor fonda bajarish topshirig‘i berilgan bo‘lsin. Bu mashg‘ulotda biz akvarelning ikki rangidan foydalangan holda foydalanamiz.

gurmasdan asosiy fondagi havorang va karmin rangida rang berib chiqamiz

Uchinchi bosqich (55–rasm):

Geometrik jismlarga rang berib boshlaymiz. Ish boshlashdan avval naturadagi umumiy rang munosabatlarini diqqat bilan o'rganib chiqish lozim. Shuning uchun bu masalaga 5–10 daqiqa vaqt sarflab, naturaning umumiy rang munosabatlarini tushunish kerak: eng och va eng to'q (zich) dog' qayerda, tusi va rang kuchi bo'yicha asosiy farqlar (to'yinganligi) qanday ekanligini topish kerak.

To'rtinchi bosqich (56–rasm):

Yorug'likka, yarim soyaga yoki soyaga yonma–yon turgan qandaydir ikkita yuza jismlaridagi narsalarda bir xil yoritilish sharoiti mavjud emas. Buyumni barcha qismini palitrada topilgan rang bilan unga och yoki to'q rangni qo'shib ishlash mumkin emas. Buyumni har bir bo'lagi uchun yangi va yana yangi bo'yoq qorishmalarini topish kerak. Odatda lokal (buyum) rangi yarim soyada sezilarliroq, chunki yarim soya yorug'lik manbaining asosiy va aks etayotgan tomonlaridan ancha sust ta'sir etadi.



56–rasm. To'rtinchi bosqich.

Buyumning xajmli shaklini jozibadorligi va natura qo'yilmasining yaxlitligini to'g'ri anglash uchun, issiq tuslar bilan yonma–yon aralash kontrast kuchida inson ko'zi sovuq rangni ko'radi. Bir rang boshqasiga qo'shimcha bo'lgan rangni his qiladi. Buning natijasida naturadagi sovuq ranglarga issiq ranglar hamisha yo'ldoshdir. Agar biz buyumning sirtida zarg'aldoq rangni ko'rsak, yonida esa albatta havo rangni sezamiz.

Issiq va sovuq tuslar tasvir ohangdorligini oshiradi, naturadagi tabiiy ko'rinishni namoyon etadi. Buyumning katta shaklini model-lashtirayotib, mayda bo'laklarni chiza turib, shuni yodda tutish kerak-ki, katta shaklning ham yoritilgan, ham soyadagi yuzasida joylashgan ko'plab kichik shakllarda aniqlanadigan tusni oshirib yubormaslik kerak. Yorug'likda yoki soyada joylashgan mayda shakl tuslarining yaqinligini ilg'ab olish uchun, ish jarayonida atrof–muhitga bog'liq bo'lmagan buyumlarga e'tibor berish shart emas. Aytib o'tgani-mizdek, buyumlarni yaxlit ko'rib, doimo ularni o'zaro solishtirib tur-ish zarur. Umumiy ranglarni to'qlashtirib, shu bilan birga oq joylarini ochartirib borgan holda chuqur soyalar va mato burmalariga ishlov beramiz.

O'z–o'zini tekshirish uchun savollar

1. Akvarel bo'yog'ida gipsli geometrik jismlardan tuzilgan natyu-rmortning rangtasvirini cheklangan ranglarda ishlash uchun nimalar-ga e'tibor berish talab etiladi?

2. Akvarel bo'yog'ida gipsli geometrik jismlardan tuzilgan natyu-rmortning rangtasvirini cheklangan ranglarda ishlash uchun qanday ashyo va anjomlardan foydalaniladi?

Mastaqil ta'lim



**57–rasm. Mustaqil ishlash uchun namunalar
(rassom Ketrin Rey).**

3 §. Xolis fonda oddiy shakldagi uy–ro‘zg‘or buyumlaridan tashkil topgan natyurmortning rangtasvirini bajarish

Bu mavzumizda bir yoki ikkita emas, balki bo‘yoqlar to‘plamidagidagi barcha ranglarni qo‘llab natyurmort ishlashimiz mumkin. Lekin bu degani barcha bo‘yoqlarni ishlatish shart degani emas. Ishni bachkanalashtirib yubormaslik uchun kamroq, faqat ushbu ishga aloqador bo‘yoqlarni ishlatganimiz ma’qul. Yangi ishni boshlashdan avval, o‘z ijodiy usulimni topish yo‘lida rangtasvir ishlashdagi yangi texnikani o‘rganish, kompozitsiyalar tuzish hamda har xil rang va usullarda ishlashni eksperiment qilib ko‘rish bilan birga o‘z ijodiy faoliyatimdan zavqlanamanmi? — degan savolga javobingizni aniqlab olishingiz zarur. Sizning motivingiz ish jarayonidagi sizning badiiy g‘oyangiz bo‘lib, kompozitsiyani tugatganingizdan keyin o‘z maqsadingizga qanchalik erishganingizni aniqlab beradi.

Ruxli oq	Sariq	Limon sariq	Kadmiy o'rtacha sariq	Sariq oxra	Neopolitan sarig'i	To'q tillarang	Zarg'aldoq rang	Shaxnazar sarig'i	Kinovar qizili	Kadmiy och qizil	Olovrang qizil
Rubin qizili	Karmin qizili	Och kraplak qizil	Temir oksidi qizili	Bordo qizili	Pushtirang	Siyohrang pushti	Siren rangi	Siyohrang	Spektr kobalt ko'ki	Ultramarin	Berlin lazuri
Kobalt ko'k	Havorang	Sereleum	Havorang	Havorang lazur	Biryuza	Sariq yashil	Zumrad yashil	Asl yashil	Yashil	Xrom oksidi	Nosrang
Zaytun rangi	Tabiiy siyena	Umbra	Kuydirilgan umbra	Jigarrang mars	Kuydirilgan siyena	Sepiya	Voronej qorasi	Payne kulrang	Indigo	Kuydirilgan suyak rang	Xolis qora

58–rasm. Bo‘yoq tushlari.


Qo‘yilgan natyurmortni har tomondan kuzating va o‘zingizga ma’qul kelgan nuqtada o‘tirib, bu nuqtadan qaraganda kompozitsiya yotiq ko‘rinishdami yoki tik holatda bo‘lishligi aniqlab olgandan

va undan so'ng qo'yilmani qog'ozga joylashtirishni boshlang. Atrofidagi narsalar chalg'itmasligi uchun nanyurmortga kuzatish moslamasi orqali qarab undan asosiy ko'rinishni ajratib oling va uni qog'oz yuzasida chiroyli joylashishiga e'tibor bering.



59–rasm. Nanyurmortni qo'l bilan kuzatish.

Eng oddiy kuzatish moslamasi sifatida o'z qo'l barmoqlaringizdan foydalanishingiz mumkin (59–rasm). Bunda ko'rsatkich va bosh barmoqlaringizni to'g'ri burchak holatida ochib, kaftlaringizni ko'z qarashingizga teskari holatda oldinga cho'zing. Bu holatda rasmda ko'rsatilgandek o'ng qo'lingizning bosh barmog'i chap qo'lingizning bosh barmog'iga, chap qo'lingizning



60–rasm. Nanyurmortni maxsus moslama orqali kuzatish.

ko'rsatkich barmog'i o'ng qo'lingizning ko'rsatkich barmog'iga tik holatda bo'lib, kuzatayotgan ko'rinish tomonga qaratganingizda barmoqlaringiz orasi to'g'ri to'rtburchak ko'rinishda bo'ladi.

Qo'llarni kerakli darajada ochib ko'rinishni qog'oz o'lchamiga moslashtirish mumkin. Mana shu ochiq bo'shliq orqali qarash kamera ob'ektividan to'rtburchak sahnaga qarash effektini beradi. Ayni vaqtda 35 mm slayd o'lchamdagi to'g'ri burchakli slayd, yoki kartondan qirqilgan burchaklar ham kuzatish moslamasi vazifasini bajaradi.



61–rasm. Birinchi bosqich.

Kartondan qirqib tayyorlab olingan bir juft qora burchak yordami-da kompozitsiya syujetlarini kuzatish, o'rganish va kompozitsiyaning eng muhim qismlarini tanlab olish uchun juda qulay moslama hisoblanadi (60–rasm). Undan natyurmort, manzara va portret janrlarida rangtasvir ishlashda foydalanish mumkin.

Natyurmort qo'yilmasi:



62–rasm. Ikkinchi bosqich.

“Rangtasvir — tasvirlanayotgan kartinadagi barcha bo‘laklar orasidagi munosabatlarni, ularning yorug‘lik kuchini va har bir bo‘laklarni o‘zaro taqqoslash natijasida... bo‘yoqlar va nozik farqlar kuchini uzoq vaqt kuzatish orqali borliqni to‘laonli ifodalash mumkin”¹ — deb aytgan edi K.F.Yuon.

Rangning kuchi (to‘yinganligi) farqlarini rang nafisligi yoki och-to‘qligi bo‘yicha aniqlashdan mushkulroqdir (Biz ushbu mavzudagi bosqichli natyurmortni taqdim etishda CHDPI “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” ta’lim yo‘nalishi 1–bosqich talabasi Tolipova Shalolaning amaliy ishlaridan foydalandik).

***Birinchi bosqich* (61–rasm):**

Kompozitsiyani joylashtirib, uning qalamda umumiy ko‘rinishini chizib olamiz. Mashq uchun quruq qog‘oz va iliq bo‘yoqlarni tanladik.

***Ikkinchi bosqich* (62–rasm):**

Natyurmortdagi mevalar, idishlar hamda fondagi asosiy tushlarni aniqlab, katta yuzalarga ishlov beriladi. Ulardagi ranglar sekin–asta to‘qlashtirib boriladi. Kartinadagi boshqa bo‘laklarining rangini fon rangi yordamida tayyorlanib borilsa bir–biriga uyg‘unlashgan iliq tushdagi kompozitsiya hosil bo‘ladi.

¹ Кирцер Ю.М. Рисунок и живопись. –М.: 1992, –118 с.

Uchinchi bosqich (63–rasm):

Kartinaning kompozitsion qurilishialohiga e'tibor beriladi. Mevalarning boy rangi hamda grafin va ryumkalarni keng rang surtmalarida berib boring. Shu'la tushib turgan joylar uchun oq qog'ozda joy tashlab ketishni unutmang. Tezda qarama–qarshi ranglar, yorqin tus va oq dog'lar ko'rinishlari sizni qo'shimcha ishlov berish, soya chetlarini yumshatish, yuvish ishlarini bajarishga undaydi.

To'rtinchi bosqich (64–rasm):

Bu bosqichda umumlashtirish va yakunlash ishlariga e'tibor qaratiladi. Yuvib tashlash bilan oq joylarini ishlang. Mevalar, savatning rangdorligiga ishlov berib ranglarni yaxlitlashtirib boring. Alohida bo'laklarning qirralari yonidagi jismlardan ajratish uchun to'qlashtiring, kerakli joyini yumshatib aniqlashtirib boring.

Ishni tugatishdan oldin uni ko'zdan panaroq joyga qo'ying. Ozroq muddat o'tgandan so'ng qaranganingizda undagi kamchiliklarni ko'ra boshlaysiz va uni to'g'irlash mumkin bo'ladi.



63–rasm. Uchinchi bosqich.





64–rasm. To'rtinchi bosqich.

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar

1. Xolis fonda oddiy shakldagi uy-ro‘zg‘or buyumlaridan tashkil topgan natyurmortning rangtasvirini ishlash uchun nimalarga e‘tibor berish talab etiladi?
2. Xolis fonda oddiy shakldagi uy-ro‘zg‘or buyumlaridan tashkil topgan natyurmortning rangtasvirini ishlashda qaysi rang gammalaridan foydalanish mumkin?
3. Qo‘yilmani to‘g‘ri joylashtirish uchun qanday usul yoki moslamalardan foydalangan ma‘qul?

Mastaqil ta’lim





65–rasm. Mustaqil ishlash uchun namunalar.

4 §. Qisqa muddatda uy-ro‘zg‘or buyumlardan tashkil topgan natyurmortning rangtasvirini bajarish

Akvarel bo‘yog‘i uchun palitra sifatida forfor yoki plastmas idish, yoki qattiq oq qog‘oz ishlatilishi mumkin. Bu kompozitsiya uchun tayyorlanayotgan rangning qanday ko‘rinishda ekanligini oldindan ko‘rib, ko‘ngildagi rangni tayyorlashga imkon yaratadi. Ba’zi akvarel bo‘yog‘i bo‘yoqlar jamlanmasida oq bo‘yoq ham bo‘ladi. Lekin akvarelda rangtasvir ishlaganda oq bo‘yoqdan emas, balki qog‘ozning oqligidan foydalanilgan maqulroq. Quyida keltirilgan akvarel spektri “Сонет” firmasi mahsuloti bo‘lib, 24 xil rangdan iborat (66–rasm). Shuni unutmaslik kerakki, akvarel bo‘yog‘i qurigandan keyin o‘zining 10–20 % yorqinligini yo‘qotadi.



66–rasm. “Сонет” akvarel bo‘yog‘i jamlanmasi.

“Сонет”, “Невская палитра” bo‘yoqlari — narxlar va sifat nisbati bo‘yicha yangi boshlanuvchilar uchun ham, tajribali rassomlar uchun ham juda qulay. Ular tabiiy va sintetik pigmentlardan tayyorlanadi, buning natijasida optimal narxga erishiladi. Ular yaxshi va sifatli rang tonlarini beradi. “Студия” (“Гамма”, Moskva) akvarellarini juda ehtiyotkorlik bilan qo‘llashga to‘g‘ri keladi. Afsuski ushbu bo‘yoq turining sifati har doim ham qoniqarli yoki beqaror bo‘lavermaydi, hatto sinab ko‘rilgan ranglar ham gohida ko‘ngildagi rang tusini beravermaydi. Doimiy qo‘llab kelingan oltin oxra gohida suv


bilan suyultirilganda, to'satdan "pufakcha" lar paydo bo'la boshladi, allaqachon sinovdan o'tgan tajriba asosida bo'yoqlar qorishtirilganda yomonroq aralashdi va qag'oz yuzasida "kir" ranglarni hosil qiladi, ayniqsa katta rang surmalarida yaqqolroq ko'zga tashlanadi.

Naturadan realistik tasvirlash atrofimizdagi voqea-hodisalar yoki narsalarning shakl va bo'yoqlarini haqqoniy tasvirlash malakasini o'z ichiga oladi. Naturani haqqoniy tasvirlash – bu narsalarni konstruktiv va perspektiva qonunlari asosida qurish, ularning fazoviy joylashuvi, materialliligi, hajm va nisbatlarni ifodalash, qalamtasvir yoki etyudni yaxlit bir butunlikka keltirish, tasvirlanayotgan ob'ektlar va narsalarni xarakterli xususiyatlari va nafis go'zalligini aniqlashdir.

Turli natura ob'ektlari (natyurmort, manzara va h.k.) yoki narsalarning asosiy umumlashtirilgan dog'lar orasidagi ranglar munosabatini aniqlashni o'rganib olishi kerak. Natura ob'ektini yaxlit ko'rish va katta asosiy ranglar dog'ini aniqlay bilish — muhim kasbiy mahorat, u esa dastlabki rangtasvir ta'limida shakllangan bo'lishi kerak.

Faqat shundan so'ng uzoq muddatli (vaqt bo'yicha) ishlarga, masalan manzara ob'ektlari yoki natyurmortdagi buyumlarning hajmli shakllarini puxta ishlov berishga o'tish mumkin.

Mashg'ulotning bosqichlari (Biz ushbu mavzudagi bosqichli natyurmortni taqdim etishda CHDPI "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi Baxtiyorova Setoraning amaliy ishlaridan foydalandik):




67-rasm. 2 ta rang aralashmasidan uchinch rangni, 3 ta rang aralashmasidan to'rtinch rangni hosil qilish tartibi.



68–rasm. Rang miqdorini orttirish yoki kamaytirish orqali qo‘shimcha rang tuslarini hosil qilish tartibi.

Uzoq muddat ishlanadigan rangtasvir ma'lum bosqichlarda bajariladi. Har qanday rangtasvirni ishlash bosqichlarining asosiy prinsipi umumiy yaxlit ko'rinishlarni ishlashdan boshlanib, keyin mayda bo'laklarni ishlashga o'tiladi va yakunlash bosqichida barchasini umumlashtirish ishlari olib borilib vazifa tugatiladi.

Natyurmort rangatasviri ishlashning bosqichlari quyidagicha amalga oshiriladi:



69–rasm. Birinchi bosqich.

Birinchi bosqich (69–rasm):

Kompozitsiyani qog'oz yuzasida joylashtirish, umumiy ko'rinishini chiziqlarda ifodalash. Bunda "o'z xususiyatiga ko'ra chiziqlar ko'z qarashini butun yuzadagi bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga yoki perspektiv chuqurlikka diqqatni yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi. Chiziqlar och-to'qligi (tusning o'zgarishi), och fonda to'q chiziq (qarama-qarshilik) bo'lishi mumkin. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, chiziqlar qandaydir rangga ega (hatto u qora bo'lsa ham) bo'lib, unda shakllar ham ifodalanadi.

Chiziqlar va rang bir xil qalinlikda, tusda bo'lsa shakl faqat ikki o'lchamli ko'rinishga ega bo'ladi. Shaklni ifodalovchi chiziqlar narsaning siluetini ko'rsatib beradi.

Narsa chetidagi har xil o'lchamdagi va to'qlikdagi, hamda har xil rangdagi chiziqlar bilan ifodalanishi tasvirning qiziqarli bo'lishiga yordam beradi.



70–rasm. Ikkinchi bosqich.

Ikkinchi bosqich (70–rasm):

Natyurmortdagi mevalar, idishlar hamda fondagi asosiy tuslarni aniqlab, katta yuzalarga ishlov beriladi. Ulardagi ranglar sekin–asta to'qlashtirib boriladi. Kartinadagi boshqa bo'laklarining rangini fon rangi yordamida tayyorlanib borilsa bir–biriga uyg'unlashgan, iliq tUSDagi kompozitsiya hosil bo'ladi.

Uchinchi bosqich (71–rasm):

Kartaning kompozitsion qurilishi. Mevalarning boy rangi hamda grafin va ryumkalarni keng rang surtmalarida berib boring. Shu'la tushib turgan joylar uchun oq qog'ozda joy tashlab ketishni unut-mang. Tezda qarama–qarshi ranglar, yorqin tus va oq dog'lar ko'rinishlari sizni qo'shimcha ishlov berish, soya chetlarini yumshatish, yuvish ishlarini bajarishga undaydi.



71–rasm. Uchinchi bosqich.

To‘rtinchi bosqich (72–rasm):

Umumlashtirish yakunlash ishlari. Yuvib tashlash bilan oq joylarini ishlang. Mevalar, savatning rangdorligiga ishlov berib ranglarini yaxlitlashtirib boring. Alohida bo‘laklarning qirralari yonidagi jismlardan ajratish uchun to‘qlashtiring, kerakli joyini yumshatib aniqlashtirib boring. Ishni tugatishdan oldin uni ko‘zdan panaroq joyga qo‘ying. Ozroq muddat o‘tgandan so‘ng qaraganingizda undagi kamchiliklarni ko‘ra boshlaysiz va uni to‘g‘irlash mumkin bo‘ladi.




72–rasm. To‘rtinchi bosqich.

Rangtasvirni bajarish bosqichlari bo'yicha qat'iy mantiqqa asoslab olib borish ko'nikmalari talabalar tomonidan uzoq vaqt ishlash natijasida asta-sekin egallab boriladi. Uy-ro'zg'or buyumlardan tashkil topgan natyurmortni bajarishda ranglar bilan shaklning hajmdor qurilishi, ularning fazoviy va masshtab jihatdan o'zaro bog'liqligini ko'rsatish vazifasi qo'yiladi. Talabaga kompozitsiyadagi chiziqli perspektiva, fazoviy perspektiva, yorug'—soya, rang—tus, o'zaro uyg'unlik, qarama—qarshilik qonuniyatlari haqida tushunchalar beriladi. Bu rangtasvirda tasvirning chiziqli konstruktiv qurilishi, yorug'—soya munosabatlarini to'g'ri bajarish bilan shaklni aniqlashtirish talab qilinadi. Ranglarning o'ta dag'alligi, rangning juda och bo'lib qolishi, shu bilan birga rangtasvirni o'ta qoraytirib yuborish, qog'ozni kir bo'lib ketishi, palapartish va qo'pol rang dog'lariga yo'l qo'ymaslik ham kerak. Tasvirdagi mayda bo'laklarni emas, katta—katta yuzalarni yaxlit ishlash bilan, qog'ozning butun yuzasi bo'ylab bosqichma—bosqich, rangtasvirning sifatli texnik bajarilishiga erishish talab qilinadi. Yorug'—soya va reflekslarga ishlashning mohiyati, tasvirni palapartish bo'yash emas, jism shaklining hajmli qurilishini muvafaqqiyatli bajarishdan iborat.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Qo'yilma (natyurmort)ni qog'oz yuzasiga joylashtirishda nimalarga e'tibor qaratish lozim?
2. Qora rangni 3 xissa va zarg'aldoq rangni 7 xissa aralashmasidan qaysi rang hosil bo'ladi?
3. Sariq va ko'k ranglar aralashmasidan qaysi rang hosil bo'ladi?
4. Sariq rangni 8 xissa va yashil rangni 2 xissa aralashmasidan qaysi rang hosil bo'ladi?

Mastaqil ta'lim



73–rasm. Mustaqil ishlash uchun namunalar.

ILOVALAR

O‘quv qo‘llanma muallifining ijodiy ishlarimdan namunalar



Natyurmort.



Yomg‘irli kun.



Afsonaviy otlar.



Kenglik.




Hiyobonda qish.




Gardun.




**“Ona diyorim Zomin” mavzusida dastgohli
turkum kompozitsiya.**




**“Ona diyorim Zomin” mavzusida dastgohli
turkum kompozitsiya.**




**“Ona diyorim Zomin” mavzusida dastgohli
turkum kompozitsiya.**



**“Ona diyorim Zomin” mavzusida dastgohli
turkum kompozitsiya.**



**“Ona diyorim Zomin” mavzusida dastgohli
turkum kompozitsiya.**



**“Ona diyorim Zomin” mavzusida dastgohli
turkum kompozitsiya.**




**“Ona diyorim Zomin” mavzusida dastgohli
turkum kompozitsiya.**



**CHDPI “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” ta’lim
yo‘nalishi talabalarining ijodiy ishlaridan namunalar**


**1-kurs talabasi BAXTIYOROVA SITORANing ijodiy
ishlaridan namunalar**





**1-kurs talabasi MO‘MINOV SHOXBOZning ijodiy ishlaridan
namunalar**





**1-kurs talabasi TO‘XTAYEV JASURBEKning ijodiy
ishlaridan namunalar**





RANGTASVIR ASARIDAN NAMUNALAR





Grizayl usulida ishlangan natyurmortlar.





Dekorativ natyurmortlar.








Akvarel bo'yog'ida ishlangan natyurmortlar.





Guash bo'yog'ida ishlangan natyurmortlar.









Moybo‘yoqda ishlangan natyurmortlar.

GLOSSARIY

Akvarel	— (fransuzcha — aquarelle, lotincha — aqua — suv) suvda tez eriydigan va yuviladigan mayin va shaffof boʻyoq.
Aktiv ranglar	— ruhni tetiklashtiruvchi iliq ranglar.
Alaya–prima	— birlamchi tasvir. Bir nafasda, qisqa vaqt ichida yaratish usuli, yoʻli. Koʻpincha etyud ishlashda va xomaki nusxa yoki tasvirlar ishlashda qoʻllaniladi.
Animalistik janr	— hayvonot dunyosini, jonivorlarni tasvirlovchi tasviriy snʼat turi.
Anor rang	— rang turi, anor guli rangi.
Asosiy ranglar	— tabiatda mavjud sariq, qizil va koʻk ranglar.
Aszar	— yashil rang, zumrad rang, Xizr soʻzining oʻzi ham arabcha boʻlib, “yashil”, “yashil boʻlish” maʼnolarini anglatadi. Yashil rang sufiylik taʼlimotida ulugʻ ranglardan biri hisoblanadi. Sharq xalqlarining tasavvurida bu rang hayot ramzidir. U samoviy mavjudotlar bilan bogʻliq hisoblanadi.
Axromatik rang	— grekcha tussiz (rangsiz) demakdir. Ular oq va qora hamda ularning turlicha koʻrinishi boʻlib, birlaridan yorugʻlik kuchlari bilan farq qiladi.
Badiiy	— borliqni, insonni, uning hayotidagi voqealarni, kechinmalarni oʻzaro oʻxshatish, shakllantirish va ranggo–rang tasvirlash.
Badiiy uslub	— sanʼatda qoʻllaniladigan uslub.
Binafsha	— spektr rangi, binafsha gulining rangiga yaqin.
Blik (yorugʻlik)	— narsalarning eng yaltiroq, shaffof joyi.
Boʻyoqlar	— boʻyash, rang berish, tasvirlash uchun ishlatiladigan moda. Moyli, sirli, nafis va boshqa turlari bor. Boʻyoqlar oʻziga xos xususiyatlari, rangi va ishlash uslubi bilan farqlanadi.

Valyor	— rang tus, rang ohangi degan ma’noni bildiradi.
Van Deyk	— jigarrang. Uni ixtiro etgan XVII mashhur golland rassomi Van Deyk nomiga mansub bo‘lib, odatda uni jigarrang deb atamasdan Van Deyk deb ham yuritiladi.
Vatman	— rassomlik va chizmachilikda ishlatiladigan qalin, oliy nav qog‘oz.
Gamma	— oralarida muayyan munosabat bo‘lgan ranglar sirasi, ranglarning shartli tizmasi.
Gemma	— bo‘rtma tasvir, geometrik unsurlardan tashkil topgan naqsh.
Graver	— metall, tosh, yog‘ochga o‘yib rasm ishlaydigan yoki nusxa ko‘chirish uchun mo‘ljallangan tasvirni tayyorlovchi rassom.
Gruntoverka	— tasvir zaminini tayyorlash.
Guash	— yelim va rang pigmenti hamda oq bo‘yoq aralashtirib tayyorlanadigan, suvda eritiladigan bo‘yoq. Rangtasvir badiiy bezash, naqqoshlik, ganch va yog‘och o‘ymakorligi hamda grafikada keng ko‘lamda ishlatiladi.
Gummigut	— 1) Issiq mamlakatlardagi ba’zi daraxtlardan olinadigan va sariq bo‘yoq uchun ishlatiladigan shira. 2) Shu shiradan tayyorlangan bo‘yoq.
Dastgohli san’at	— tasviriy san’atning bir turi. San’at asarlarini maxsus dastgohlarga o‘rnatib qo‘yish, ishlashdan kelib chiqqan atama.
Devoriy rangtasvir	— ko‘pincha devorlarga, katta o‘lchovda ishlanadigan tasvirlar.
Diorama	— yoysimon yoki yoy shaklida ishlangan rangtasvir asari.

Yorug'lik kontrasti	— o'ziga yonma–yon turgan ranglar ta'sirida o'zgarishi.
Yorug'lik nurlari	— ko'p aks etsa rang och tusda, kam aks etganda esa to'q tusda idrok qilinadi.
Yorug'lik shu'las	— yorug'lik nurlarining buyum yuzasida jilvalanishi, shu'las.
Jaydarirang	— tasvirlanayotgan narsa, buyumning umumiy rangi yoki yakrang deb ham yuritiladi.
Jigarrang	— jigarning rangiga o'xshash ranglarga jigarrang deyiladi. Ba'zi turkiy xalqlarda qo'g'ir deb ham ishlatiladi.
Jilvador	— rangdor. Ranglarning tasviriy va ifodali vositalaridan mahorat bilan foydalanish asosida erishiladi.
Zarg'aldoq	— spektr rangi, sariq va qizil ranglar uchun oraliq rang hisoblanib, ularning qorishmasidan hosil bo'lgan rang.
Zarhal	— tillasimon rang.
Zarrin	— sariq, tiniq sariq. Quyosh nuri ma'nosida ham ishlatiladi.
Za'faron	— rang turi. Sariq tivitlardan iborat bo'lib, sigaret tamakisini eslatadi.
Zumrad	— yashil tusli qimmatbaho tosh: chiroyli tovlanishi, yaxshi jilvalanishi, shaffofligi bilan ajralib turadi. Akvarel bo'yog'i tarkibidagi (Изымп — Уный зеленый) zumradga zumrad rang deb aytiladi.
Ijod	— yangilik yaratish jarayoni.
Ijodkor	— yangilik yaratuvchi, izlanuvchi.

Iliq rang	— olovni, quyoshni, qizigan jismlrni eslatuvchi sariq, zarg‘aldoq, qizil va ularning aralashmasidan hosil bo‘lgan ranglar.
Kadimiy	— kimyoviy element, yaltiroq va oq metall, bo‘yoqlarga qo‘shiladigan modda. U yordamida hosil bo‘lgan bo‘yoqlarga kadimiy nomi qo‘shib aytiladi.
Karmin	— qirmizi, qizil rangning bir turi.
Kobalt	— ko‘k bo‘yoqning bir turi, och havo rang, to‘q havo rang yoki nilobi deb ham yuritiladi.
Kolorit	— san‘at asaridagi ranglar birikmasi, ularning uyg‘unlashib ko‘rinishi.
Kontrast	— qarama–qarshilik, ranglarning o‘zaro qarama–qarshiligi. Bir rangning yonida ikkinchi rangning yanada yorqinroq, chiroyliroq ko‘rinishi.
Kulrang	— oq va qora ranglar aralashmasidan hosil bo‘lgan rang turi.
Levkas	— tasvir ishlash uchun tayyorlangan taglik.
Lessirovka	— sayqallash, pardozlash kabi rangtasvir uslubi.
Lokal rang	— narsa yoki buyumning asosiy, yetakchi rangi.
Lola rang	— lolagun, lola rangiga yaqin rang.
Mazok	— surtma, mo‘yqalamda keskin va uzib–uzib ishlash, bunda asosan mo‘yqalamning qog‘ozda, matoda qoldirgan xarakterli izlari ko‘zda tutiladi.
Mayolika	— (Malorka orolining qadimiy Maiolka nomidan) sirkor, rangli sapol.
Mahobatli rangtasvir	— biror binoning peshtoq devorlariga ishlangan katta rangtasvir asari.

Marvarid	— zeb–ziynat buyumi, inju, durning maydasi. Zargarlik hamda amaliy bezakning boshqa turlarida keng qoʻllaniladi. Tarkibida koʻkimtir sariq boʻlgan oq rangning tovlanuvchi koʻrinishiga ham marvarid rang deyiladi.
Mato	— rangtasvir asarini ishlashda foydalaniladigan material.
Miniatyura	— (italyancha — miniatura, lotincha — minium, qadimda qoʻlyozma kitoblarni bezashda ishlatilgan qizil rahg). Bu nom koʻpincha bezak va taqinchoqlarga tushirilgan tasvir, shuningdek, ushoq tasvir deb yuritiladi.
Molbert	— (nemischa — Malbrett) rassom dastgohi, anjomi.
Moʻyqalam	— qilqalam, rassomlar ishlatadigan yozuv va tasvir quroli.
Nil obi	— 1). Och zangori rang. Nil daryosi suvi, nil daryosi rangi degan maʼnoni ham anglatadi. 2). Koʻk soʻzi turkiy soʻz boʻlib, moviy osmonni eslatadigan och zangori rang degani. Sovuq ranglarning biri sifatida qadimdan ajdodlarimiz nilobi rangi ramziy maʼnosida ham qoʻllab “yomon koʻz”dan asrash ramzi deb hisoblaganlar.
Nilufar	— (nilufariy, firuzagun) koʻk rang, moviy rang.
Nim sariq	— och sariq, “nim” qoʻshimchasi koʻpchilik hollarda och maʼnosini beradi.
Norajvash	— apelsin rangiga yaqin rang.
Nofarmon	— och binafsha, olma guli rangi.
Obraz	— qiyofa, siymo, ifoda talqin.
Olachipor	— rang nomi, tasvirda ranglarning tartibsiz berilishi.
Olov rang	— otash rang, olov rangiga yaqin iliq rang.

Osmoniy	— moviy, lojuvard, nilgun, rang nomi.
Palitra	— (fransuzcha — paletta) rasm ishlayotgan paytda rassom bo‘yoqlarini qorishtiradigan yupqa moslama, taxtakach.
Panno	— tasviriy yoki naqshin namoyon, ko‘pincha xonalarni bezatish uchun ishlatiladigan, shuningdek tashviqot va targ‘ibot ishlarida foydalaniladigan rangtasvir asari.
Pastel	— rangli qalamcha, bo‘r. Shu qalam yordamida ishlangan asarlar ham pastel deyiladi.
Pigment	— turli bo‘yoqlar kukuni.
Pistoqi	— rang turi, pista rangiga yaqin rang.
Plakat	— tashviqot va targ‘ibot maqsadlarida ishlangan rasmlar.
Plener	— ochiq havo, tabiat, muhit, tabiat manzarasi, tabiat quchog‘ida tasvirlash.
Polotno	— bo‘z matoga ishlangan rangtasvir asari.
Rang	— 1). Biror narsaning o‘ziga xos bo‘yog‘i, tusi. 2). To‘yinganligi, rangning yorug‘lik nurlarini ko‘p yoki oz miqdorda aks ettirish xususiyati.
Rang garmoniyasi	— rang uyg‘unligi, mutanosibligi bir–biriga muvofiqlanishi, hamohangligi.
Rang intensivligi	— ranglarning zichligi, to‘yinganligi, rangdorligi, ravshanligi.
Rang toni	— tusi vazminligi, ranglarni og‘irlik va yengillik taassurotini uyg‘otuvchi xususiyat.
Rang tusi	— 1). Ko‘rinishi. 2). Rangni uning bir–biridan farq qiladigan har bir ayrim turini bildiruvchi so‘z. 3). Rangning xarakterli xususiyatlaridan biri, ya‘ni ranglarning to‘lqin uzunligiga qarab aniqlanadigan xossasi.

Ranglama	— tasviriy san’atda narsalarning bo‘yoqlar bilan tez ishlanadigan bir turi.
Ranglar	— rang majmuasi, ranglarning bir–biriga muvofiq tushishi, o‘zaro uyg‘unlashuvi.
Ranglarning vazminligi	— ranglarning kishida og‘ir va yengillik taassurotlarini uyg‘otuvchi xususiyati.
Rangshunoslik	— ranglar haqida ta’limotning ham nazariy, ham amaliy tomonlarini o‘rganuvchi fan.
Rasm	— tasvir, shakl, tekis yuzada qo‘lda yaratiladigan tasvir.
Rassom	— musavvir, suratkash, haykaltarosh, naqqosh, tasvir ifodalovchi mutaxassis.
Refleks	— narsa va buyumlar rangining boshqasida aks etishi, aks.
Ritm	— takrorlanish, rang yoki naqsh unsurini ma’lum tartibda va muayyan oraliqdan bir tekis takrorlanishi.
Sangina	— (fransuzcha sanguina — qonli qizil) qon so‘zidan tashkil topgan atama. Rassomlikda ishlatiladigan yumshoq jigar rang, qizil rang ko‘rinishidagi, kaolin va temir oksididan tashkil topgan bo‘rsimon qalam.
San’at	— arabcha atama bo‘lib, hayotdagi narsa va hodisalarni badiiy, obrazli tarzda aks ettiruvchi ma’naviy madaniyatning tarkibiy qismi.
San’atshunos	— san’at tarixi, nazariyasi va uning taraqqiyoti bo‘yicha tadqiqot olib boruvchi mutaxassis.
Simvol	— ma’lumot beruvchi tasvir.
Sovuq rang	— suvni, muzni, qorni eslatuvchi ko‘k, zangori, yashil, binafsha kabi ranglar.

Samoniy rang	— samon rangiga o‘xshash sariq, tillasimon rang.
Soya	— narsalarning yorug‘lik tushmaydigan qismidagi ko‘rinishi.
Suyultirgich	— bo‘yoqni eritish uchun ishlatiladigan suyuq moda.
Tasviriy san‘at	— (italyancha — terracota — kuydirilgan yer) rangli sirlanmagan sopol, sopol haykalchalar, sopolak.
Tush	— qora siyoh. Shu vosita bilan ishlangan asar ham tush deyiladi.
Xromatik kontrast	— biror rang tusining u bilan yonma–yon turgan rang ta‘sirida o‘zgarishi.
Xromatik ranglar	— muayyan rang tusiga ega bo‘lgan bo‘yoq: qizil, ko‘k, yashil va hokazo.
Shtrix	— chiziq, chizgi.
Shu‘la	— nur.
Ekspozitsiya	— ko‘rsatish, ko‘rgazma, yoyma. Tanlangan tartib bilan joylashtirilgan muzey. Ko‘rgazmaga qo‘yilgan buyumlar, san‘at asarlari.
Etyud	— o‘rganish, mashq qilish. Etyud san‘atning barcha turida mavjud. Tasviriy san‘atda esa rassom izlanishlari, mashqlari, asarlarning o‘ziga, asliga qarab, odatda biror katta asar yaratish uchun ashyo bo‘lib xizmat qiladigan dastlabki tasvir.
Yarim soya	— nim soya, narsalarda va tasvirda yorug‘ bilan soya o‘rtasidagi qism.
Qo‘shimcha ranglar	— qizil, sariq, ko‘k ranglarni qo‘shish orqali hosil bo‘lgan ranglar, ya‘ni asosiy ranglarni aralashtirganda hosil bo‘ladigan omuxta ranglar.
Qizil	— asosiy rang, spektr rangi, qon rangiga yaqin rang.
Quroq	— turli rangdagi mato, qog‘oz parchalaridan yasalgan shakl, tasvir. Kashtado‘zlikning maxsus turi bo‘lib, u o‘ziga xos tayyorlash jarayoniga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” mavzusidagi mahruzasi. //Xalq so‘zi, 2016 yil, 8 dekabr.

2. Mirziyoev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: O‘zbekiston, 2016, –56 b.

3. Mirziyoev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib — intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi shart”. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. – T.: O‘zbekiston, 2017, –104 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017, –486 b.

5. 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasi. –T.: 2017.

6. Abdullaev N. San‘at tarixi (1 tom). –T.: O‘qituvchi, 1986.

7. Abdullaev N. San‘at tarixi (2 tom). –T.: San‘at, 2001, 192 b.

8. Sultanov X.E Ankabayev R.T. Yosh musavvir. –T.: 2017.

9. Ahmedov M.B., Xolmatova F.M., Rasulov M.A., Isayeva D.B. Rangtasvir (Metodik qo‘llanma). –T.: BROK CLASS SERVIS, 2016, 108 b.

10. Ahmedov M.B. Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etish texnologiyalari (monografiya). –T.: Ilm–ziyo–zakovat, 2020, 128 b.

11. Ahmedov M.B., Xasanova M.Z. Qalamtasvir. –T.: IJOD–PRINT, 2021, 176 b.

12. Sultonov X.E. Rangtasvir (Akvarelda natyurmort ishlash). –T.: 2019.

13. Joseph Shepherd. Realistik Figure Drawing. –Cincinnati, Ohio.: North Light Books, 1991, –144 p.
14. Egamov A., Boymetov B. va Aminov X. Chizmatasvir (KHKlar uchun o‘quv qo‘llanma). –T.: Sharq NMAK, 2011.
15. Metodo Professionale. Il Figurino di Moda. Milano, 2005. –362 p.
16. Muratov X.X. va Jabbarov R.R. Amaliy va badiiy bezak san’ati. –T.: IJOD–PRINT, 2020, 160 b.
17. Nabiev M. Rangshunoslik va rangtasvir texnologiyasi. –T.: O‘qituvchi, 1995, 48 b.
18. Oydinov N. Rassom o‘qituvchilar tayyorlash muammolari. –T.: O‘qituvchi, 1997, 215 b.
19. Oripov B.N. Tasviriy san’at asoslari. –Namangan.: NamDU, 1994, 56 b.
20. Tojiyev B., Isahojiyeva N. Qalamtasvir, rangtasvir va kompozitsiya asoslari. –T.: Sharq NMAK, 2011.
21. Xalilov R.Sh. Akvarel. –T.: Navruz, 2013.
22. Hasanov R. Maktabda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi. –T.: Fan, 2004, 250 b.
23. Abdullaev N. Sharq xalqlari san’ati tarixi. –T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriëti, 2007.
24. Abdullaev N. O‘zbekiston san’ati tarixi. –T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriëti, 2007.
25. Aksenov Yu., Levidova M. Iqvet i liniya. –M.: Xudojnik, 1986.
26. Aryushin L.F. Iqvetovedenie. –M.: Kniga, 1982.
27. Bekmurodov M., Quronboev Q., Tangriev L. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiët va yangilanish sari. –T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriët–matbaaa ijodiy uyi, 2017, –92 b.
28. Bërn X. Dinamicheskaya anatomiya dlya xudojnikov. –Nyu–York.: 1990.
29. Gavriilyachenko S.A. Kompozitsiya v uchebnom risunke. –M.: Izd.–vo SkanRus, 2010, –192 s.
30. Jabinskiy V.I., Vintova F.V. Risunok. –M.: Infera – M, 2009.
31. Zaytsev A. Nauka o iqvete i jivopisi. –M.: Iskusstvo, 1986.
32. Kak risovat natyurmort. (T.Minedjyan tahriri ostida). –M.: Izd.–vo Astrel, 2001, –32 s.

33. Kirrер Yu.M. Risunok i jivopis. –M.: 1992.
34. Kurushin V.D. Dizayn i reklama. –M.: DMK Press, 2006.
35. Ёgamov X. Rangtasvir. –T.: Bilim, 2005.
36. Qo‘ziev T., Ёgamov A., Qanoatov T., Nurqobilov A. Rangtasvir. –T.: 2003.

INTERNET SAYTLARI

1. www.cspi.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.Ziyonet.uz
4. www.tdpu.uz
5. tdpu-INTERNET.Ped
6. e-mail – mail@vgik.info
7. www.pencil.nm.ru
8. [artinst @ mail.ru](mailto:artinst@mail.ru)
9. [ychednoe@ mail.ru](mailto:ychednoe@mail.ru)
10. www.msus.org.
11. [www. artacademu.spd.ru](http://www.artacademu.spd.ru)
12. e-mail [chakin @ peterstar.ru](mailto:chakin@peterstar.ru)
13. [srt academy @ antecede my. spd.ru](mailto:srt_academy@antecede.my.spd.ru)
14. <http://kashfiyotlar.narod.r>

MUNDARIJA

I BOB. KIRISH	3
1 §. So‘zboshi o‘rnida	3
2 §. Ranglar va ularning paydo bo‘lishi	7
3 §. Rangtasvir va uning janrlari	15
II bob. AMALIY MASHG‘ULOTLAR	43
1 §. Rangtasvir haqida tushuncha. Realistik rangtasvirning maqsad va vazifalari. Xolis fonda 2–3 geometrik jismdan tuzilgan sodda natyurmort ishlash (grizayl)	43
2 §. Gipsli geometrik jismlardan tuzilgan natyurmortning rangtasvirini cheklangan ranglarda bajarish (akvarel).....	50
3 §. Xolis fonda oddiy shakldagi uy–ro‘zg‘or buyumlaridan tashkil topgan natyurmortning rangtasvirini bajarish.....	56
4 §. Qisqa muddatda uy–ro‘zg‘or buyumlardan tashkil topgan natyurmortning rangtasvirini bajarish	62
ILOVALAR	70
GLOSSARIY	94
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	102

ANKABAYEV RAHIM TURG'UNOVICH

RANGTASVIR

fanidan 1–kurslar uchun o‘quv qo‘llanma

1–qism

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: T. Raxmatullayev

Musahhih: N. Ismatova

Sahifalovchi: A. Muhammad

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.
Bosishga ruxsat etildi 19.08.2021 y.
Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. Ofset qog‘ozi. “Times New Roman”
garniturası. Hisob-nashr tabog‘i. 5,5.
Adadi 100 dona. Buyurtma № 50.

«ZEBO PRINTS» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha.

[illegible]